2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 241 (1840), 2026-yil 20-noyabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

QULAY SHAROIT, ZARUR INFRATUZILMA VA SIFAT JIHATDAN YANGI BOSQICHGA CHIQAYOTGAN HAMKORLIK

Prezidentimiz O‘zbekiston — Turkiya biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi kengash yig‘ilishida ishtirok etdi.





Odatda, investitsiya oqimi haqida gap ochilsa, uning davomi mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlik, ishbilarmonlik muhiti, rivojlangan infratuzilma kabi omillarga ulanib ketadi. Chunki biznesning azaliy qoidasi shunday: har qanday sarmoyador o‘ziga qulay sharoit yaratilgan joyga intiladi. Pirovardida bu jihatlar umumlashib, har ikki tomon uchun manfaatli g‘oyalarni yuzaga chiqarib, loyihalarga yo‘l ochadi.

Ushbu hamkorlik qardosh xalqlar, manfaati va maqsadi mushtarak, aloqalari har tomonlanma mustahkamlanib borayotgan davlatlar o‘rtasida bo‘lsa-chi? Bu holatda investitsiya so‘zi iqtisodiy atama xususiyatidan chiqib, harakatlar moddiylik chegarasidan hatlab o‘tib, o‘zaro ishonch va do‘stlik mas’uliyati orta boshlaydi.

Bugun O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi aloqalar ana shunday darajaga chiqib bormoqda. Prezidentimiz ishtirokida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston — Turkiya biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi kengashning birinchi yig‘ilishi davomida aytilgan fikrlar, ilgari surilgan g‘oya va tashabbuslar shunday deyishimizga asos bo‘lmoqda. Binobarin, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an bilan erishilgan kelishuv asosida tashkil etilgan ushbu yangi mexanizm ikki mamlakat iqtisodiy hamkorligiga qo‘shimcha sur’at bag‘ishlashga qaratilganini alohida ta’kidladi.

Turkiya bugun O‘zbekistonning tashqi savdo hamkorlari orasida Xitoy, Rossiya va Qozog‘istondan keyin to‘rtinchi o‘rinda. 2022-yil 29-martda imzolangan Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim bunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, 2025-yilda ikki mamlakat tovar aylanmasi 3,1 milliard dollarni tashkil etgan. Shundan O‘zbekiston eksporti qiymati 1,2 milliard, importi hajmi esa 1,9 milliard dollardan iborat bo‘ldi.

Ayni paytda O‘zbekistonda Turkiya kapitali ishtirokida 2400 dan ziyod qo‘shma korxona faoliyat yuritmoqda. O‘tgan yilning o‘zida shunday korxonalardan 200 dan ortig‘i ish boshlab, ikki tomonlama hamkorlik doirasida 2,9 milliard dollarlik investitsiya o‘zlashtirilgan.

Qolaversa, ikki mamlakat o‘rtasida haftasiga 138 ta muntazam aviaqatnov amalga oshirilmokda.

Huquqiy asoslar bor. Ular izchil takomillashtirib borilyapti. Ishbilarmonlar davlat rahbarlarining doimiy ko‘magi va daldasini his qilib turibdi. Erkin ishlash uchun yanada yaxshi sharoit yaratib berilyapti. Bunday vaziyatda, tabiiyki, biznesini rivojlantiruvchilar, hamkorlik qiluvchilar soni ortib boraveradi. Toshkentda o‘tkazilgan O‘zbekiston — Turkiya biznes forumi 200 dan ziyod ishbilarmonni bir joyda jamlaganining boisi ham shunda. Prezidentimiz buni ikki mamlakat tadbirkorlarining o‘zaro sheriklikni kengaytirishga katta qiziqishining ifodasi sifatida baholadi.

Turkiyaning “Cengiz Enerji” kompaniyasi Qibray va Xovos tumanlarida har biri 240 megavatt quvvatga ega ikkita elektr stansiyasini ishga tushirgan. Jizzax viloyatida ham shu kompaniya bilan hamkorlikda 500 megavatt quvvatli stansiya qurilmoqda. “Aksa” kompaniyasi esa Samarqand viloyati elektr taqsimlash tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha 357 million dollarlik loyihani amalga oshirmoqda. Jizzax viloyatidagi “Uchquloch” polimetall konini Turkiyaning “Esan” kompaniyasi bilan o‘zlashtirish loyihasi 120 million dollarga baholangan. Samarqand — Buxoro pulli avtomobil yo‘lini davlat-xususiy sheriklik asosida qurish bo‘yicha memorandum imzolangan. Loyihaning qiymati 1 milliard dollarni tashkil qiladi.

Mamlakatimiz yetakchisi O‘zbekiston — Turkiya biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi kengash yig‘ilishida yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijalari va kelgusi maqsadlarga to‘xtaldi.

2017-yildan buyon mamlakatimiz iqtisodiyoti uch barobar o‘sdi, 150 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb etildi. 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish, sanoat ishlab chiqarishini ikki barobar oshirish, ushbu tarmoqda 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni ochish hamda yuqori texnologik mahsulotlar ulushini uchdan bir qismga yetkazish maqsad qilingan. Bu vazifalarni amalga oshirishda keng qamrovli strategik sherik — Turkiya bilan amaliy hamkorlikni izchil rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

Davomi 2-betda

TURKIYA BILAN ALOQALARNI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Vitse-prezidenti Javdat Yilmaz boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Muloqot davomida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, xususan, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, axborot texnologiyalari, turizm, transport va energetika sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda ikki tomonlama aloqalar yuqori sur’atda rivojlanib, o‘zaro savdo hajmi va qo‘shma korxonalar soni izchil ortib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ayniqsa, Biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi kengash ta’sis etilgani va Toshkentda uning ilk yig‘ilishi doirasida yangi salmoqli investitsiya loyihalari va savdo kelishuvlariga erishilgani, 200 dan ortiq yetakchi kompaniyalar hamda ishbilarmonlar ishtirokida biznes forumi o‘tkazilgani yuqori baholandi.

Uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni to‘liq amalga oshirish hamda bo‘lajak muhim tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan ham atroflicha fikr almashildi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI XALQARO DZYUDO FEDERATSIYASI RAHBARINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘smirlar o‘rtasida dzyudo bo‘yicha jahon chempionati munosabati bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Xalqaro dzyudo federatsiyasi prezidenti Marius Vizerni qabul qildi.

Uchrashuvda ushbu nufuzli federatsiya bilan milliy dzyudo maktabini rivojlantirish va yosh sportchilarni tayyorlash borasida hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Toshkent jahonning nufuzli dzyudo markazlaridan biriga aylanib borayotgani ta’kidlandi. So‘nggi uch yilda mamlakatimizda 4 ming nafardan ziyod sportchi ishtirokida 10 ta xalqaro musobaqa o‘tkazildi. Joriy yilgi o‘smirlar o‘rtasidagi jahon chempionati esa ilk bor O‘zbekistonda tashkil etilmoqda.

Marius Vizer yurtimizda sportni rivojlantirish va yoshlarni sportga keng jalb etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholadi.

O‘zbekistonda yirik xalqaro musobaqalarni o‘tkazish, milliy terma jamoani Los-Anjelesda bo‘lib o‘tadigan Olimpiya o‘yinlariga tayyorlash, mamlakatimizda yaratilgan zamonaviy sport infratuzilmasi negizida sportchilar, murabbiylar va hakamlarni o‘qitish hamda sport tibbiyoti sohasidagi hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Dzyudo bo‘yicha o‘smirlar o‘rtasidagi jahon chempionati 19-22-noyabr kunlari Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasida bo‘lib o‘tadi. Unda 78 mamlakatdan 600 nafarga yaqin yosh sportchi bellashmoqda. Musobaqalarga xorijiy mamlakatlarning yuqori darajadagi delegatsiyalari ham kelgan.

O‘zA

Yangi Toshkent: ORZUDAGI KELAJAK SHAHRI BUNYOD ETILYAPTI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 18-noyabr kuni Yangi Toshkent qurilishini jadallashtirish hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar ijrosi yuzasidan o‘tkazgan yig‘ilishida bu yerdagi ishlar mutlaqo yangicha yondashuv va qat’iy ijro intizomi asosida tashkil etilishi lozimligini ta’kidladi.

Yangicha yondashuv. Shu birgina maqsadning o‘zida zamonaviy shaharsozligimiz va odamlarga munosib sharoit yaratib berish falsafasi mujassam. Boisi, Yangi Toshkent nafaqat zamonaviy muhandislik va iqtisodiy megaloyiha, balki milliy o‘zlik, tarixiy xotira, ijtimoiy adolat va madaniy taraqqiyot uyg‘unlashgan yangi makon sifatida bunyod etilmoqda.

Bugun Yangi Toshkent hududidagi ulkan bunyodkorlik ishlari, qurilish ko‘lami va zamonaviy shaharsozlik jarayonlarini kuzatar ekanman, tarixchi sifatida o‘tmish, bugun va kelajak haqida mushohada yuritishga undaydigan ko‘plab fikrlar xayolimdan o‘tdi.

Davomi 2-betda

MAHALLADAN JAHON BOZORIGACHA

yoxud inson qadri uchun boshlangan islohotlarning hayotiy in’ikosi

Iqtisodiy taraqqiyot haqida so‘z ketganda, ko‘z o‘ngimizda, avvalo, yirik korxonalar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari, investitsiyalar va eksport ko‘rsatkichlari gavdalanadi. Albatta, bular mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini belgilaydigan muhim mezonlar. Biroq har bir raqam ortida inson taqdiri, mehnati, orzu-intilishlari, kundalik turmushidagi o‘zgarishlar turadi. Taraqqiyotning asl mazmuni ham uning samarasi odamlar hayotida qanchalik aks etayotgani bilan belgilanadi.



Prezidentimiz rahbarligidagi islohotlar markazida inson qadri, munosib hayot kechirishi, mehnat qilib daromad topishi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur sharoit yaratish maqsadi turibdi. Ayniqsa, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlikni qisqartirish, aholi bandligini ta’minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga mahalla, hatto alohida xonadon darajasida yondashilmoqda.

Bu jarayonda banklarning maqomi ham o‘zgarmoqda. Ular quyi bo‘g‘inga tushib, aholi va tadbirkorlar bilan bevosita ishlash, imkoniyatlarni aniq loyihalarga aylantirish, moliyaviy ko‘makni yangi daromad manbalari va ish o‘rinlari ochishga yo‘naltirmoqda.

Keyingi paytlarda Qashqadaryo, Jizzax, Farg‘ona, Andijon va Buxoro viloyatlarida bo‘lib, turli kasb egalari, tomorqachilar va tadbirkorlar bilan suhbatlashdik. Ularning kechagi tashvishlari, bugungi mehnati, ertangi rejalari bilan qiziqdik.

Bir qarashda bu insonlarning hayoti va mashg‘uloti turlicha bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turgan jihat mehnat qilish, izlanish va o‘z hayotini yaxshilash istagidagi harakatlaridir. Bu intilishning amaliy natijaga aylanishida esa yaratilayotgan imkoniyatlar, banklarning moliyaviy va tashkiliy ko‘magi muhim o‘rin tutmoqda.

Kimdir kechagina doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan, bugun esa o‘z tomorqasida mehnat qilib, ro‘zg‘orini tebratmoqda. Boshqa birov kichik ishlab chiqarish tarmog‘ini kengaytirib, qo‘shnilarini ham ish bilan ta’minlamoqda. Yana bir tadbirkor esa mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish yo‘lida sa’y-harakat qilmoqda.

Davomi 3-betda

YANGI O‘ZBEKISTON
2026-yil 20-noyabr, 241-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

QULAY SHAROIT, ZARUR INFRATUZILMA VA SIFAT JIHATDAN YANGI BOSQICHGA CHIQAYOTGAN HAMKORLIK

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonda 2030-yilga qadar oltin qazib olish hajmini 175 tonnaga, kumushni 500 tonnaga, mis ishlab chiqarish quvvatlarini esa 500 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan. Shu davrda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 gigavattga, ularning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 54 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoqda.

Jizzax viloyatida tashkil etilayotgan Atom sanoati maxsus sanoat zonasida 15 ta yo‘nalishda mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Ushbu mahsulotlar O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida barpo etiladigan atom elektr stansiyalari ehtiyojlariga ham yo‘naltiriladi.

Shu ma’noda, davlatimiz rahbari turk kompaniyalarini tog‘-kon sanoati, mineral resurslarni chuqur qayta ishlash va “yashil” energetikada yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga taklif qildi.

Elektrotexnika sanoati ikki davlat iqtisodiy hamkorligining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada kooperatsiyani kengaytirish imkoniyatlarni yanada oshiradi. Shundan kelib chiqib, 2030-yilga qadar mamlakatimizda ushbu tarmoq eksporti qiymatini 5 milliard dollarga yetkazish va 11,6 milliard dollar investitsiya jalb etish maqsad qilingan.

Turkiya kompaniyalari misni chuqur qayta ishlash, elektronika, transformatorlar, maishiy texnika va elektr uskunalari ishlab chiqarishda o‘zbekistonlik korxonalar bilan qo‘shma loyihalarni yo‘lga qo‘yish zarurligi aytildi.

Yig‘ilishda qishloq xo‘jaligidagi sheriklikni kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi. Turkiyaning agrar sohadagi tajribasini hisobga olib, organik mineral o‘g‘itlar va qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish, zamonaviy issiqxonalar barpo etish, bog‘dorchilik, suv tejovchi texnologiyalar hamda sovitkich omborlar yo‘nalishlarida hamkorlikni kuchaytirish taklif etildi.

O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va yirik chakana savdo tarmoqlari orqali yetishtirishdan iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan yagona qiymat zanjirini shakllantirishdan manfaatdor.

Prezidentimiz turkiyalik investorlarni Yangi Toshkent qurilishi va mamlakatimizdagi yirik infratuzilma loyihalarida faol ishtirok etishga chaqirdi. Turk kompaniyalariga yangi shaharda tijorat va turar joy majmualari, mehmonxonalar, ta’lim va tibbiyot muassasalarini barpo etish bo‘yicha hamkorlik taklif qilindi.

Shu bilan birga, pulli avtomobil yo‘llari, aeroportlar va logistika markazlarini rivojlantirish transport sohasidagi istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatildi.

Mamlakatimizda tibbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun Toshkent farmatsevtika parkida investorlarga keng qamrovli imtiyoz va preferensiyalar, zarur infratuzilma hamda ishlab chiqarish maydonlari taqdim etilmoqda.

Prezidentimiz turk farmatsevtika kompaniyalari uchun alohida sanoat zonasini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

2002-yildan buyon mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan “Nobel Pharmsanoat” kompaniyasi tajribasi sohadagi hamkorlikning amaliy namunasi sifatida ko‘rsatildi. Turkiyaning boshqa yetakchi farmatsevtika kompaniyalari ham ushbu yo‘nalishda faol bo‘lishlari mumkin.

Bugun O‘zbekistonda xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik dasturlari ham izchil tatbiq etilmoqda. Bu omil ham sarmoyadorlar, xususan, Turkiya investorlari uchun yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Jumladan, mamlakatimizda 2026-2027-yillarda umumiy qiymati 8,4 milliard dollarlik davlat aktivlari, ko‘chmas mulk obyektlari va yer maydonlarini savdoga chiqarish rejalashtirilgan. Bu ham Turkiya banklari, investitsiya fondlari va sanoat kompaniyalariga qo‘shimcha loyihalarni ishga tushirishga sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va moliyaviy xizmatlar iqtisodiy sheriklikning muhim yo‘nalishlaridir. Mamlakatimizda AT xizmatlari eksporti qiymatini 5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. AT park rezidentlari uchun joriy etilgan soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalangan holda turk kompaniyalari bilan autsorsing, dasturiy ta’minot va sun’iy intellekt sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

O‘zbekistonda 33 yildan buyon faoliyat yuritayotgan “Ziraat Bank” faoliyati ijobiy baholanib, Turkiyaning boshqa moliya institutlariga ham mamlakatimiz bank sektoridagi islohotlar va xususiylashtirish jarayonida faol qatnashish taklif qilindi.

— Biz bundan buyon ham mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlar uchun ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettiramiz, — dedi Prezidentimiz.

Maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya hajmi va belgilangan shartlarga qarab, 3 yildan 10 yilgacha soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etilmoqda. Yirik investorlarga tayyor ishlab chiqarish binolari, yer maydonlari va zarur muhandislik infratuzilmasi taqdim etilmoqda. Toshkent viloyatida tashkil etilgan 100 gektarli “Ostim” sanoat zonasi ayni shu sa’y-harakat samarasidir. Hozir mazkur hududni kengaytirish bo‘yicha ishlar ancha faollashgan.

Prezidentimiz ushbu ijobiy tajribani boshqa hududlarda ham kengaytirishga tayyorligini bildirdi.

— Aminmanki, sizlar bilan birgalikda yanada yuksak natijalarga, albatta, erishamiz. Bu borada barchangizga ulkan yutuq va omadlar tilayman, — dedi Prezidentimiz so‘zining yakunida.

Yig‘ilishda kengash hamraislari — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Rahbari Saida Mirziyoyeva va Turkiya Respublikasi vitse-prezidenti Javdat Yilmaz ham so‘zga chiqdi.

Turkiya vitse-prezidenti Javdat Yilmaz amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli O‘zbekistonning iqtisodiyot va xalqaro siyosatdagi nufuzi tobora ortib borayotganini ta’kidlab, 2025-yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti 7 foizdan ziyod o‘sganini, bu yil esa 8 foizdan ortiq o‘sish kutilayotganini, yil yakuniga borib iqtisodiyot hajmi 200 milliard dollarga yetishini, kelgusida esa 300 milliard dollarlik marra zabt etilishi ko‘zda tutilganini alohida e’tirof etish barobarida, “Bu raqamlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q. Bularning barchasi Prezident Shavkat Mirziyoyev amalga oshirgan islohotlar va yaratgan muhit natijasidir”, degan gaplari yangi O‘zbekistondagi hozirgi islohotlarga munosib baho bo‘ldi.

E’tiborga molik jihati, bunday fikrlar xalqaro minbarlarda ham ko‘p aytilyapti. Albatta, bular o‘z-o‘zidan bugun paydo bo‘lib qolayotgan e’tiroflar emas. Bu mamlakatimizda keyingi o‘n yil davomida izchillik bilan olib borilayotgan odilona siyosat va oqilona islohotlarning amaldagi ko‘rinishiga yaqqol misol. Bugun yangi O‘zbekiston dunyo bilan bo‘ylashayotgani isboti. Turkiya kompaniyalari rahbarlarining yig‘ilish davomida imkoniyatlar uchun minnatdorlik bildirgani, kelgusi rejalari xususida ochiq-oydin aytib, takliflar berishi ham ana shu siyosat mevasidir.

O‘zbekiston — Turkiya biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yuqori darajadagi kengashning birinchi yig‘ilishi — bu tadbirning rasmiy nomi. Davlatimiz rahbarining investorlarning fikr va takliflarini eshitish maqsadida ularni samimiy muloqotga chorlagani, yuqorida aytganimiz — o‘zaro ishonchga asoslangan do‘stona munosabatlar nafaqat mustahkamlanib, balki yangi sifat bosqichiga chiqayotganidan dalolatdir.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

IJTIMOIY PORTRET

iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilyapti

Oltiariq tumanidagi “Bunyodkor” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Yo‘lchibek Jo‘rayev turmush o‘rtog‘i bilan birga uch farzandni kamolga yetkazmoqda. Ularning kundalik ishlab topgan puli ro‘zg‘ordan ortmaydi. Yashash uchun uy-joyi ham yo‘q. Ijarada turishadi. Boz ustiga oilaboshining bolalikdan nogironligi bor.

Turmush tarzini “mahalla yettiligi” o‘rgangach, oila “kambag‘al oila” reyestriga kiritildi. Xonadon bekasi muqim daromadli ishga joylashdi. Voyaga yetmagan farzandlari uchun doimiy nafaqa tayinlandi. Mahalladagi saxovatpeshalar ko‘magida ularga yangi uy-joy qurib berildi. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi uy-joyini ta’mirlatishi uchun oilaga qariyb 21 million so‘m mablag‘ ajratdi.

— Inson qadrlangan yurtda yashayotganimizdan behad mamnunmiz, — deydi Yo‘lchibek shukrona bilan. — Uysiz, tayinli ishga ega bo‘lmay, ancha qiynalayotgandik. Endi hammasi o‘zgardi. Sog‘lig‘imni tiklashim uchun moddiy ko‘mak, oziq-ovqat mahsulotlari berildi. Bu oilamiz farovonligi uchun katta imkoniyat. Biz endi kambag‘al emasmiz. O‘z uyimiz, ish joyimiz, daromad manbaimiz bor.

Keyingi yillarda kambag‘allikni qisqartirish borasidagi islohotlar ko‘plab oilalarga quvonch, farovonlik, shukronalik olib kirmoqda. Gap faqat berilayotgan ijtimoiy ko‘mak, bir martalik yordam haqida emas, balki ularni jamiyatga qo‘shish, boshqa fuqarolar kabi teng sharoitda yashashi uchun imkoniyat yaratish, har jihatdan qo‘llab-quvvatlash haqida ketmoqda. Masalan, reyestrga kiritilgan oilalar a’zolari qiziqishidan kelib chiqib, o‘qish yoki ishga yo‘naltirilib, bandligi ta’minlanyapti. Jumladan, joriy yil boshida Oltiariq tumanidagi 3415 kambag‘al oila ro‘yxatga olingan. Ya’ni kambag‘allik darajasi 5,9 foizni tashkil qilgan. Yaratilgan sharoit va imkoniyatlar tufayli yil boshidan buyon 1000 ta oila kambag‘allikdan chiqarildi, kambag‘allik darajasi 1,8 foizga tushdi.

— Ikki farzandimning biri nogiron, — deydi “Zarhal” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Xurshida Oripova. — Bolalarimdan ortib, biror joyda ishlashga imkoniyat topa olmayotgandim. Mahalla faollari oilaviy sharoitimiz, imkoniyatimiz bilan tanishgach, chorvachilik yo‘nalishida tadbirkorlik qilishni taklif etdi. Buning uchun 30 million so‘m imtiyozli kredit berildi. Sog‘in sigir oldik, dasturxonimizdan sut-qatiq uzilmayapti. Ehtiyojdan ortganini qo‘ni-qo‘shnilarga sotyapmiz. Yaqinda bir bosh sigirimiz ikkita bo‘ladi.

Oltiariq tumanidagi mahallalarda xatlov jarayonini sifatli tashkil qilish uchun har 3-4 mahallaga tijorat banklari hamda iqtisodiy kompleks rahbari va o‘rinbosarlari biriktirilgan. Xatlov natijasida ishsiz 3332 fuqaro aniqlangan. Bundan tashqari, 7792 yurtdoshimiz tadbirkorlik qilish niyatida ekanini bildirgan. Yana 173 nafar oltiariqlik past daromadli ishda, 6000 dan ortig‘i norasmiy ish bilan band ekani ma’lum bo‘lgan.

— Mahallalardagi xatlovni sifatli tashkil qilish, xonadonbay o‘rganish maqsadida hokim yordamchilari, mahalla bankirlari bilan birga ijtimoiy reyestrga kiritilgan 4601 oilaning daromad manbalari va ehtiyojlari shakllantirildi, — deydi Oltiariq tumani hokimi birinchi o‘rinbosari Abdumalik Ro‘zmatov. — Biriktirilgan mas’ullar shunchaki holatni ko‘rib, ro‘yxatga qo‘shayotgani yo‘q. Aksincha, masalaning ildizini o‘rganish uchun oilalarning kambag‘allikka tushib qolishi sabablari o‘rganilyapti. Ya’ni ijtimoiy portret orqali masalaga yechim topilyapti. Amaliy sa’y-harakatlar tufayli shu kungacha kambag‘al oilalar a’zolarining 539 nafari doimiy ishli bo‘ldi, 21 nafariga 251,3 million so‘mlik imtiyozli kredit berildi. Yana 104 yurtdoshimizga 757 million so‘mlik ssuda va subsidiya ajratildi, 70 nafari esa kasbga o‘qitilmoqda. Bunda ishbilarmonlar bilan manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etishga e’tibor berilyapti. Qishloq xo‘jaligi yerini ajratish orqali ham bandlik ta’minlanyapti. Shuningdek, kambag‘allik va ishsizlik ko‘rsatkichi yuqori mahallalarning har birida kamida 30 tadan yangi ish o‘rni ochish imkonini beradigan loyihalar boshlangan. Unga ko‘ra, umumiy qiymati 24,6 milliard so‘mlik 52 ta sanoat loyihasi ishga tushiriladi.

“Chorva fayz Oltiariq” fermer xo‘jaligi tashabbusi bilan Qapchug‘ay mahallasida parrandachilik korporatsiyasi tashkil etiladi. Loyihaga ko‘ra, hududdagi kambag‘al, ijtimoiy himoyaga muhtoj 120 oilaga parranda, kerakli ozuqalar yetkazib beriladi. Hatto veterinariya xizmatlari ham ko‘rsatilib, tayyor mahsulotni sotib olish kafolatlanadi. Shuningdek, “Zilol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 70 gektar adirlikda intensiv bog‘ tashkil etish ishlari boshlandi. Bu yerda 280 dan ortiq kambag‘al va ishsiz oila uchun muqim ish joy va qo‘shimcha daromad manbai yaratildi. “Oltiaraq Eco sanitar” mas’uliyati cheklangan jamiyati sa’y-harakati bilan kambag‘allik va ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalardagi xonadonlarda kichik hajmli 300 ta muzlatkichli ombor tashkil etilmoqda.

— Mahallamizni ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish borasidagi ishlar ko‘lami kun sayin kengayib bormoqda, — deydi “Zilol” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Shukurullo Parpiyev. — Yil boshidan buyon 55 oila kambag‘allikdan chiqarildi. Tomorqada issiqxona xo‘jaliklarini yuritish mahallamizning drayveriga aylangan. Keyingi uch yilda bu yo‘nalishda 150 dan ortiq tomorqada issiqxona tashkil etildi. Bugunga kelib, 360 dan ortiq xonadonda issiqxona bor. Odamlar mehnatining samarasini ko‘ryapti. Ammo bu xotirjamlikka asos bo‘lmaydi. Ayni kunda samarasiz, suv yetib borishi qiyin bo‘lgan yerlarni o‘zlashtirish orqali yana 100 ta yangi issiqxona barpo etishga kirishdik. Bu xo‘jaliklarning asosiy qismi migratsiyadan qaytgan kambag‘al oila farzandlari va mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan yoshlarga bo‘lib beriladi.

Xalqimiz “Tashvishsiz bosh, mehnatsiz daromad yo‘q”, deydi. Bu ibora zamirida sinovlarni halol mehnat va sabr bilan yengib o‘tishga chaqiriq bor. Bugun yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlar ana shu sinovlarni yengib o‘tishda rag‘bat va quvvat bo‘lmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangi Toshkent: ORZUDAGI KELAJAK SHAHRI BUNYOD ETILYAPTI



Nodira MUSTAFOYEVA,
Fanlar akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi rahbari, tarix fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Har bir inson o‘zidan yaxshi nom, ezgu amal va munosib meros qoldirishni istaydi. Xalqning buyukligi faqat yashayotgan hududi, qurgan binolari yoki iqtisodiy qudrati bilan emas, balki asrlar osha saqlanib qoladigan ma’naviy qadriyatlari, tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi va kelajak avlodlarga qoldirgan merosi bilan belgilanadi.

Shu ma’noda, Prezidentimizning 2026-yil oktabrda Yangi Toshkent hududida investorlar va tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqotidagi fikrlari zamirida oddiy bunyodkorlik tushunchasidan ancha keng va teran ma’no mujassam. O‘shanda davlatimiz rahbari juda ulug‘vor bir maqsadni ilgari surdi. Ya’ni oradan 50-100 yillar o‘tadi, avlodlar almashadi, zamonlar mohiyati o‘zgaradi, ana o‘sha kunlarda ham bizning davomchilarimiz, o‘z ota-bobolari zakosi bilan faxrlanib yurishi kerak. Bu bugungi ko‘plab bunyodkorliklarimiz bilan birga Yangi Toshkent misolida ham e’tirof etilsa, degan niyatlar qilindi.

Mana shunday buyuk maqsadlar bilan bugun ana shu tarixiy vorislikning yangi bosqichiga guvoh bo‘lyapmiz. Ko‘z o‘ngimizda Yangi Toshkent hududida qad rostlayotgan inshootlar, yaratilayotgan zamonaviy infratuzilma, yashil hududlar va ijtimoiy maskanlar bir muhim fikrni mustahkamladi: har bir davr o‘zidan keyingi avlodlarga munosib meros qoldirish mas’uliyatini his etishi darkor.

Tarixchi sifatida men uchun eng muhim jihat shundaki, bugungi bunyodkorlikni ertangi kun tarixidan ajratib bo‘lmaydi. Biz bugun qanday qarorlar qabul qilsak, qanday shahar barpo etsak, qanday qadriyatlarni asrab-avaylasak, kelajak avlodlarimiz tariximizni shunday baholaydi.

Prezidentimiz fikrlarining eng e’tiborli jihatlaridan biri qurilayotgan shaharning o‘zimizniki bo‘lishi, milliy qiyofamiz, didimiz va qadriyatlarimizni ifoda etishiga e’tibordir.

Aslida, “o‘zimizniki” degan tushuncha juda katta ma’naviy mazmunga ega. Bu faqat mulk yoki hududga egalik qilish emas. Bu — o‘z tarixing, o‘z madaniyating, o‘z me’moriy an’analaring, o‘z tiling va o‘z qadriyatlaringga ega bo‘lish, ularni asrab-avaylash va kelajakka yetkazish tuyg‘usi.

Chunki shahar qurish faqat imorat tiklashdan iborat emas. Shahar qurish xalqning dunyoqarashi, tafakkuri, madaniyati, orzu-intilishlari va o‘zligini makonda namoyon etish demakdir. Avvalo, ajdodlarimiz bizga qanday shaharlar, me’moriy obidalar va boy madaniy meros qoldirganini ko‘z oldimizga keltiraylik. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi asrlar osha o‘z jozibasini yo‘qotmagan shaharlarimizning har bir g‘ishtida, har bir me’moriy yechimida xalqimizning aql-zakovati, tafakkuri, bunyodkorlik salohiyati, diniy va dunyoviy qarashlari, hayot falsafasi va yuksak didi mujassam. Ular o‘z davrining taraqqiyot darajasinigina emas, balki ajdodlarimizning kelajak avlodlar haqidagi g‘amxo‘rligi va mas’uliyatini ham namoyon etadi.

Millat taqdiri uchun qayg‘urgan jadid bobolarimiz ham xalqning kelajagini, avvalo, uning o‘zligini anglashi, tarixini bilishi, ilm-ma’rifatga intilishi va zamon bilan hamnafas bo‘lishida ko‘rgan edi. Ular o‘zligini anglamagan



Faxr

xalqning kelajagi mustahkam bo‘lmasligi, o‘z tarixini bilmagan millat esa ertangi kunini to‘g‘ri belgilashda qiynalishini yaxshi tushunardi.

Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, degan mashhur fikri ham bugungi bunyodkorlik jarayoniga bevosita daxldor. Zero, shaharni ham, jamiyatni ham, kelajakni ham faqat bino va inshootlar emas, balki ularga ma’no bag‘ishlaydigan insonlar, milliy tarbiya va ma’naviy qadriyatlar yuksaltiradi. Shuning uchun jadidlarimizning ma’rifatchilik harakatida maktab, teatr, matbuot, adabiyot va milliy madaniyat masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ular kelajak uchun mehnat qildi. Bugun Yangi Toshkentni barpo etish jarayonida ana shu jadidlar orzusining zamonaviy ifodasini ko‘rish mumkin. Bu zamonaviylikka intilish bilan birga milliy qiyofani asrash, taraqqiyotga erishish bilan birga tarixiy ildizlardan uzilmaslik, dunyoga ochilish bilan birga o‘zligimizni namoyon etish demakdir.

Yangi Toshkent loyihasining yana bir muhim jihati shundaki, u faqat poytaxtning kengayishi yoki yangi ma’muriy va iqtisodiy markaz barpo etilishi bilan cheklanmaydi. Butun mamlakatning tarixiy, madaniy va ma’naviy salohiyatini bir nuqtada jamlash imkoniyatini ham beradi.

Toshkent shahrining barcha tumanlari hamda respublikamizning har bir viloyatiga Yangi Toshkent hududidan 100 gektardan yer maydoni ajratilishi haqidagi tashabbus ana shu nuqtai nazardan alohida ahamiyatga ega. Buning zamirida katta g‘oya bor. O‘zbekistonning har bir viloyati, har bir hududi, xalqimizning o‘ziga xos madaniyati va tarixi poytaxtning yangi qiyofasida o‘z aksini topishi kerak. Shu ma’noda, Yangi Toshkent nafaqat yangi shahar, balki butun mamlakatning o‘ziga xos madaniy qiyofasi namoyon bo‘ladigan umummilliy makonga aylanadi.

Bu tashabbusning yana bir muhim ma’nosi: milliy birlik faqat shiorlarda emas, balki amaliy ishlar, umumiy qadriyatlar va umumiy maqsadlarda namoyon bo‘lishida.

Shu bilan birga, Yangi Toshkent shahridagi keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari mamlakatimizda zamonaviy shaharsozlikning yangi bosqichini boshlab bermoqda. Ushbu tajriba bugun O‘zbekistonning boshqa hududlarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Bunday tashabbuslarning mamlakat bo‘ylab kengayib borishi poytaxt va viloyatlar o‘rtasida zamonaviy rivojlanish uyg‘unligini ta’minlash, tarixiy shaharlarning o‘ziga xos qiyofasini saqlagan holda, ularni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish imkonini beradi. Bu esa mamlakatimizda bunyodkorlik siyosati izchil davom etayotgani va bunda inson qadri, aholi farovonligi hamda hududlar ravnaqi bosh maqsad ekanining ifodasidir.

Prezidentimizning qurilish va arxitektura sohasida shoshilmaslik, izlanish, puxta loyihalash va kelajakni hisobga olish zarurligi haqidagi fikri bugungi bunyodkorlikning bosh mezonini belgilab beradi.

> **Yangi Toshkent biz uchun nafaqat bunyodkorlik maydoni, balki yangi ijtimoiy tafakkur, milliy o‘zlik va zamonaviy madaniyat shakllanayotgan ulkan ilmiy laboratoriya hamdir.**

Shaharning “yashil shahar” tamoyillari asosida barpo etilishi, ekologik muvozanat, zamonaviy infratuzilma va mustaqil iqtisodiy markaz sifatida rivojlanishi ham kelajak avlodlar manfaati bilan chambarchas bog‘liq.

Chunki biz bugun faqat o‘zimiz uchun emas, farzandlarimiz, nabiralarimiz va ulardan keyingi avlodlar uchun ham yashash makonini yaratyapmiz. Bugun barpo etilayotgan Yangi Toshkent aslida o‘zimizning ertangi qiyofamiz, milliy g‘ururimiz, tarixiy xotiramiz va kelajakka bo‘lgan ishonchimizdir.

Yangi Toshkent haqida so‘z borganda, nafaqat uning zamonaviy me’moriy qiyofasi, keng ko‘chalari, yashil hududlari va ulkan bunyodkorlik loyihalari, balki butun dunyo e’tiborini tortgan noyob musiqali favvorasi haqida ham alohida to‘xtalish lozim. Bu favvora Ginnesning rekordlar kitobiga birdan ikki yo‘nalish bo‘yicha kiritilgani xalqimiz uchun katta faxr va iftixor. Bu O‘zbekistonning bunyodkorlik salohiyati, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish imkoniyati, dunyo miqyosidagi ulkan loyihalarni amalga oshirishga qodirligining isboti.

Prezidentimizning “Ishonchim komilki, Yangi Toshkent poytaxtimizning yanada go‘zal bo‘lishiga xizmat qilib, biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekistonning kuch-qudratini namoyon etadigan haqiqiy taraqqiyot markaziga aylanadi”, degan so‘zlari esa mazkur shahar oldida turgan ulkan vazifani belgilab beradi. Eng muhimi, bugun o‘zbek xalqi faqat qadimiy obidalari bilan emas, balki zamonaviy taraqqiyot sohasidagi yutuqlari bilan ham jahon e’tiborini qozonayotganini ko‘rsatadi.

Yangi Toshkent biz uchun nafaqat bunyodkorlik maydoni, balki yangi ijtimoiy tafakkur, milliy o‘zlik va zamonaviy madaniyat shakllanayotgan ulkan ilmiy laboratoriya hamdir.

Tarixchi sifatida bir haqiqatni alohida ta’kidlashni istardim: tarix faqat o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealardan iborat emas. Tarix oldida har bir avlodning o‘z vazifasi bor. Ajdodlarimiz bizga boy madaniy meros, betakror me’moriy obidalar, ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni qoldirdi. Biz esa bu merosni asrab-avaylash bilan birga uni yangi mazmun bilan boyitib, kelajak avlodlarga yetkazishimiz lozim. Tarix bugun qilayotgan ishlarimiz, qabul qilayotgan qarorlarimiz va qoldirayotgan izlarimizda aks etadi. Ana shu tarixda bizning nomimiz ezgu ishlarimiz, milliy o‘zligimizga sadoqatimiz va kelajak oldidagi mas’uliyatimiz bilan qolishi kerak.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news
3
2026-yil 20-noyabr, 241-son

Har bir hududning o‘z imkoniyati bor. Bir joyda tomorqachilik va chorvachilik uchun qulay sharoit bo‘lsa, boshqa hududda hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash yoki sanoat rivojlangan. Shu bois, barchaga bir xil moliyaviy mahsulotni taklif etish bilan kutilgan natijaga erishish qiyin.

MAHALLADAN JAHON BOZORIGACHA

yoxud inson qadri uchun boshlangan islohotlarning hayotiy in’ikosi



Xayrulla XOLTO‘RAYEV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Bir xonadonda uch imkoniyat

Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Esoboy mahallasida yashovchi Xudoynazar Quvondiqov xonadonida bo‘lganimizda oila a’zolarining har biri o‘z imkoniyatiga qarab mehnat qilayotganini ko‘rib quvondik.

Ilgari bu oilaning doimiy daromad manbai bo‘lmagan. Mehnat qilishga ishtiyoq bor, ammo uni daromadga aylantirish uchun zarur imkoniyat yetishmasdi. Bank vakillari xonadon sharoiti, oila a’zolarining mehnatga layoqati va imkoniyatlarini o‘rganib, bir-birini to‘ldiruvchi uch yo‘nalishda faoliyat tashkil etishga ko‘maklashgan.

Bugun Xudoynazar akaning qizi va kelini tikuvchilik bilan shug‘ullanmoqda. Xonadonda qoramol boqilib, ro‘zg‘or ehtiyojidan ortgan mahsulot sotilmoqda. Issiqxonada esa sabzavot yetishtirilmoqda. Oila a’zolarining aytishicha, ana shu mashg‘ulotlar hisobidan yiliga 50-60 million so‘m daromad topilmoqda.



Bizni raqamdan ko‘ra xonadondagi mehnat muhiti ko‘proq qiziqtirdi. Har kimning o‘z yumushi bor. Birining mehnati ikkinchisini to‘ldiradi. Eng muhimi, oila endi faqat tashqi yordamga umid bog‘lab o‘tirmaydi, o‘z imkoniyatiga tayanib, ro‘zg‘orini mustahkamlashga intilmoqda.

Bu misolda muhim jihat bor. Bir martalik moddiy yordam ehtiyojmand oilaning tashvishini muayyan darajada yengillatishi mumkin. Ammo doimiy daromad manbaini shakllantirish insonning hayotga munosabatini o‘zgartiradi. U ertangi kunini rejalashtira boshlaydi. Mehnatining natijasini ko‘rgach, o‘z kuchiga ishonchi ortadi.

Kosondagi tajribaning ahamiyati ham shunda. Bu yerda oilaning imkoniyatlari o‘rganilib, ularni ishga solishga amaliy ko‘mak berilgan. Natijada ilgari daromad keltirmagan mehnat salohiyati oila farovonligiga xizmat qila boshlagan.

Qarovsiz tomorqadan katta daromad

Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi Bog‘ishamol mahallasida esa boshqacha manzaraga duch keldik. Gulnora Xo‘jabekovaning tomorqasi ilgari yetarlicha foydalanilmay, qarovsiz yotgan. Oilaning barqaror daromad manbai ham bo‘lmagan. Gulnora opaning mehnat qilish, tomorqadan foyda olish istagi bor, ammo mablag‘, zarur bilim va yetishtirilgan mahsulotni sotish imkoniyati cheklangan edi.

Bank ko‘magida mahalladagi yetakchi tadbirkor bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgach, tomorqaning ikki sotix qismida issiqxona tashkil etilib, sabzavot yetishtira boshlangan.

Muhimi, Gulnora opa bu ishda yolg‘iz qolmagan. Yetakchi tadbirkor ko‘chat yetkazib berish, parvarishlash va tayyor mahsulotni sotish jarayonida ko‘maklashmoqda. Issiqxonaga agronom ham biriktirilgan. Yetishtirilgan hosil esa bozor narxida xarid qilinadi.

Bir qarashda, oddiy hamkorlikka o‘xshab ko‘rinadi. Ammo uning zamirida tomorqa egasi uchun muhim bir nechta muammoning yechimi mujassam. U qanday ko‘chat ekish, qay tarzda parvarishlash va hosilni kimga sotish haqida ortiqcha bosh qotirmaydi. Asosiy e’tiborini sifatli mahsulot yetishtirishga qaratadi.

Yetakchi tadbirkor esa faoliyati uchun zarur mahsulot ta’minotini yo‘lga qo‘yadi. Bog‘ishamol mahallasida 100 ta xonadonning ikki sotixdan yerida issiqxonalar tashkil etish ishlari deyarli yakuniga yetgan.

Bir tasavvur qiling: ilgari yetarlicha foydalanilmagan yer yuzta oila uchun daromad manbaiga aylanish arafasida. Bu shunchaki issiqxonalar qurilishi emas, balki mahallada mehnatga munosabat, tadbirkorlik ko‘nikmalari va iqtisodiy faollikning o‘zgarishidir.

Ayni paytda ushbu tajribaning yana bir muhim jihati bor. Bu yerda tadbirkor faqat o‘z biznesini rivojlantirmayapti. Uning faoliyati atrofida boshqa xonadonlar ham iqtisodiy jarayonga jalb etilmoqda. Bank esa moliyaviy ko‘makchi bo‘lib, yonida turibdi.

Demak, tadbirkorlik rivojlansa, samarasi bir korxona yoki bir oila bilan cheklanib qolmaydi. U boshqalar uchun ham mehnat qilish, daromad topish imkoniyatini yaratadi.

Tonggi quvonch

Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanidagi bir xonadonda bo‘lganimizda iqtisodiy islohotlarning inson hayotidagi ahamiyatini yanada teran his qildik. Nogironligi sababli oila boshlig‘ining mehnat qilish imkoniyati cheklangan. Shunday bo‘lsa-da, turmush o‘rtog‘i bilan ikki farzandini boqish, ro‘zg‘or tebratish uchun kundalik ishlarga chiqib yurgan. Doimiy daromad manbai bo‘lmagan bu oila uchun har bir kunning o‘z tashvishi bor edi.

Bank tomonidan ehtiyojmand oilalarni daromadli faoliyatga jalb etish maqsadida qilinayotgan ishlar doirasida ushbu xonadonga buzoqli sog‘in sigir berilgan. Bir qarashda oddiy chorvachilik loyihasi. Ammo uning oila hayotidagi ahamiyatini ona bilan suhbatlashganimda angladim.

Opa o‘sha kuni tongni qanday kutib olganini mamnuniyat bilan so‘zlab berdi. Ertalab sigir sog‘ib, sutini pishirgan va maktabga otlanayotgan ikki farzandining nonushtasiga qo‘ygan. Ilgari bolalar ko‘pincha issiq choy va non yeb maktabga ketar ekan. Bu gal esa dasturxonda sut ham bor edi.

Ona farzandlarining quvonchi haqida so‘zlar ekan, chehrasidagi mamnuniyatni yashira olmasdi. Prezidentimizning e’tibori ularning xonadonigacha yetib kelgani uchun minnatdorlik bildirdi.

O‘sha suhbatdan keyin bir muddat o‘ylanib qoldim.

Biz iqtisodiy islohotlar haqida gapirganda, odatda moliyalashtirilgan loyihalar, ochilgan ish o‘rinlari, daromad ko‘rsatkichlarini tilga olamiz. Albatta, bular muhim. Ammo bir ona uchun farzandlarining ertalab sut ichib maktabga ketishi ham katta baxt ekanini o‘sha xonadonda ko‘rdim.

Bir buzoqli sigir hisobotda bitta loyiha sifatida qayd etilishi mumkin. Lekin bu oila uchun u ro‘zg‘orga baraka, kelgusidagi daromad va ertangi kunga umid manbaidir.

Albatta, chorva berish bilan barcha muammo hal bo‘lmaydi. Uni parvarishlash, ozuqa va veterinariya xizmati bilan ta’minlash, ortgan mahsulotni sotish ham muhim. Dastlabki ko‘mak ana shunday ishlar bilan mustahkamlansagina, barqaror daromadga aylanadi.

Bu xonadonda hali katta ishlab chiqarish yo‘q, yangi korxona ham ochilmagan. Ammo eng muhimi, oila o‘z mehnati bilan daromad topish sari dastlabki qadamni qo‘ygan. Inson qadrini ulug‘lashning hayotiy ma’nosi ham, avvalo, shunday o‘zgarishlarda namoyon bo‘lsa kerak.



Hammasi kichik tashabbuslardan boshlanadi

Ulug‘nor tumanidagi Fazogir mahallasida yashovchi Jahongir Soliyev faoliyati bilan tanishuvimiz tadbirkorlikning nafaqat bir inson, balki boshqa oilalar hayotiga ham ta’sir ko‘rsatishini anglashga yordam berdi.

U dastlab bankning 30 million so‘mlik moliyaviy ko‘magi bilan qurut tayyorlashni yo‘lga qo‘ygan. Kichik oilaviy ish ko‘lami asta-sekin kengayib, “Qurtob” nomi bilan mahalliy bozorda o‘z brendiga ega bo‘lgan. Bugun korxona mahsulotlari Andijon va Farg‘ona bozorlariga yetkazib berilmoqda. Tadbirkorning aytishicha, kuniga 1,5-2 tonna sut qayta ishlanyapti.

E’tiborlisi, bu yerda tadbirkorlikning rivoji aholi bandligiga ham xizmat qilmoqda. Hozir korxonada yetti ishchi mehnat qilyapti. Ular shu mahallaning ilgari ish bilan band bo‘lmagan odamlari orasidan jalb etilgan.

> **Bugungi jahon bozorida sifatli mahsulot ishlab chiqarishning o‘zi kifoya qilmaydi. Uning dizayni, brendi, marketingi, xaridorlar ishonchi va o‘z vaqtida yetkazib berish tizimi ham muvaffaqiyatni belgilaydi.**

Demak, bir tadbirkorning tashabbusi yetti kishining mehnat qilish, daromad topish imkoniyatiga aylangan.

Mahsulotga talab ortgani sari xomashyo ta’minotini mustahkamlash zarurati tug‘ilgan. Shu maqsadda qiymati 5 milliard so‘mlik yangi loyiha ustida ishlar bajarilmoqda. Uning doirasida naslli qoramollar xarid qilinib, aholi xonadonlariga tarqatilishi rejalashtirilgan. Yetishtirilgan sutni korxona xarid qiladi. Natijada tadbirkor barqaror xomashyo manbaiga, aholi esa tayyor xaridorga ega bo‘ladi.

Ushbu jarayonda iqtisodiy jihatdan muhim bir holatni ko‘rish mumkin. Kichik mablag‘ bilan boshlangan ishlab chiqarish dastlab tadbirkorning o‘ziga daromad keltirgan bo‘lsa, keyinchalik boshqalarni ish bilan ta’minlay boshlagan. Endi esa u yanada kengayib, xonadonlarni xomashyo yetishtirish jarayoniga jalb etish imkoniyatini yaratmoqda. Bir korxona rivojlansa, uning atrofida xomashyo yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar, tashuvchilar va savdo bilan shug‘ullanuvchilar uchun ham ish maydoni kengayadi.

Shu ma’noda, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash faqat bir ishbilarmonning faoliyatiga ko‘mak berish emas. Bu uning ortida turgan boshqa insonlar va oilalar uchun ham iqtisodiy imkoniyat yaratish demakdir.

Baraka manbai — mehnat

Buxoro viloyatidagi to‘qimachilik korxonasi rahbari Dilshod Bobojonov faoliyati misolida tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi bozorlarga chiqish uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning yana bir muhim jihatini ko‘rish mumkin.

Bu yerda gap faqat mahsulot ishlab chiqarish haqida emas. Asosiy maqsad uning qo‘shimcha qiymatini oshirish, xalqaro bozordagi o‘rni va raqobatbardoshligini mustahkamlashdir.

Bugungi jahon bozorida sifatli mahsulot ishlab chiqarishning o‘zi kifoya qilmaydi. Uning dizayni, brendi, marketingi, xaridorlar ishonchi va o‘z vaqtida yetkazib berish tizimi ham muvaffaqiyatni belgilaydi.

Dilshod Bobojonov shu jihatlarni hisobga olib, jahonga mashhur Germaniyaning “Curt Bauer” brendini sotib olgan va mahsulotlarini mazkur nom ostida tashqi bozorga chiqarishni yo‘lga qo‘ygan. Mazkur korxona maxsus kiyimlar hamda turli sanoat tarmoqlari uchun kiyim-kechak ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bu jarayonda bankning moliyaviy hamkorligi ham muhim o‘rin tutgan.

Ishlab chiqarish hajmining ortishi korxonaning xomashyo, malakali ishchi kuchi, transport va boshqa xizmatlarga ehtiyojini ham oshiradi. Yangi bozorlarga chiqish esa quvvatlardan samarali foydalanish, kelgusida ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Ayniqsa, mahsulotni o‘z brendi bilan sotish korxonaga qo‘shimcha qiymatning kattaroq qismini o‘zida saqlab qolish imkonini berishi mumkin. Bu esa uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish va bandlikni kengaytirish uchun muhim omildir.

Albatta, xalqaro brendni sotib olishning o‘zi muvaffaqiyat kafolati emas. Uning nufuzini saqlash, mahsulot sifatini ta’minlash va xaridor ishonchini qozonish uchun izchil mehnat zarur.

Buxorodagi bu tajriba mahalliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoridagi ishtirokini kengaytirish, sanoat korxonalarini rivojlantirish va shu orqali yangi bandlik imkoniyatlarini shakllantirish nuqtai nazaridan ahamiyatli.

Loyihadan iqtisodiy faollikka

Safarlar davomida ko‘rganlarim bir haqiqatni yanada ravshanlashtirdi. Iqtisodiy islohotlarning samarasi, avvalo, ularning mahalla va xonadonlarga qanchalik yetib borayotganida namoyon bo‘ladi.

Prezidentimiz tomonidan banklar oldiga qo‘yilgan vazifalar ham shu nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar faoliyatini quyi bo‘g‘inga tushirish, aholi va tadbirkorlar bilan bevosita ishlash, hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliy loyihalarga aylantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugun bank vakillari mahallalar, xonadonlar, ishlab chiqarish korxonalariga kirib bormoqda. Aholi va tadbirkorlar bilan yuzma-yuz muloqotlar o‘tkazilib, ularning muammolari joyida o‘rganilmoqda. Muhimi, bu uchrashuvlar faqat murojaatlarni tinglash bilan cheklanmay, aniq loyihalarni shakllantirish va amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Har bir hududning o‘z imkoniyati bor. Bir joyda tomorqachilik va chorvachilik uchun qulay sharoit bo‘lsa, boshqa hududda hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash yoki sanoat rivojlangan. Shu bois, barchaga bir xil moliyaviy mahsulotni taklif etish bilan kutilgan natijaga erishish qiyin.

Ana shu jihatdan hududlarning ixtisoslashuvi, aholining mehnat ko‘nikmalari, resurslar va bozor talabiga mos moliyaviy mahsulotlar hamda tayyor biznes yechimlarini taklif etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada joylarda tashkil etilayotgan loyihalar ofislari, uskunalar markazlari ham alohida o‘rin tutadi. Ularning asosiy vazifasi tadbirkorlik istagidagi insonga g‘oyadan tayyor loyihagacha bo‘lgan jarayonda amaliy ko‘mak berishdir. Tayyor biznes ishlanmalari orqali fuqaro qanday faoliyat bilan shug‘ullanishi, qancha mablag‘ talab etilishi, qanday uskuna kerakligi, mahsulot tannarxi va kutilayotgan daromadni oldindan baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Biroq tayyor loyiha va zamonaviy uskunaning o‘zi ham muvaffaqiyat kafolati emas. Uni boshqaradigan insonda yetarli bilim, ko‘nikma va mas’uliyat ham bo‘lishi zarur. Shu bois, aholini tadbirkorlikka o‘qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, xarajat va daromadni rejalashtirish, bozor talabini o‘rganish ham katta ahamiyat kasb etmoqda.



Aholi bandligini ta’minlashda ikki muhim yo‘nalish o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilmoqda. Birinchisi ishsiz va doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan fuqarolarni o‘z imkoniyatlaridan foydalangan holda mehnat faoliyati va tadbirkorlikka jalb etish bo‘lsa, ikkinchisi faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali yangi ish o‘rinlarini ochishdir.

Bu ikki yo‘nalish bir-birini to‘ldiradi. Kechagina ishsiz yurgan inson bugun o‘z xonadonida daromad topa boshlasa, faoliyati kengaygan tadbirkor boshqa bir nechta oilani ish bilan ta’minlaydi. Birining tomorqasida yetishtirilgan mahsulot ikkinchisining korxonasi uchun xomashyoga aylanadi. Shu tariqa kichik tashabbuslar o‘zaro bog‘lanib, mahallada iqtisodiy faollikni shakllantiradi. Albatta, har bir tashabbusning muvaffaqiyati bozor talabi, xomashyo narxi, infratuzilma, logistika va boshqaruv ko‘nikmalariga ham bog‘liq.

Zero, iqtisodiy natijani faqat ajratilgan mablag‘ yoki loyihalar soni bilan baholab bo‘lmaydi. Asosiy mezon loyiha qanchalik barqaror ishlayotgani, nechta odamni ish bilan ta’minlayotgani va aholi daromadiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganidir.

O‘zgarishlar qanoti

Qashqadaryodagi bir xonadonning tikuv mashinasidan Buxorodagi korxonaning xalqaro brendigacha bo‘lgan masofa bir qarashda ancha olis. Ammo ularni birlashtirib turgan umumiy jihat bor. Bu inson tashabbusi, mehnati va yaratilayotgan iqtisodiy imkoniyatlarning o‘zaro uyg‘unligi.

Kosonda oila o‘z imkoniyatlarini ishga solib, bir nechta manbadan daromad topmoqda. Jizzaxda tomorqa egalari yetakchi tadbirkor bilan hamkorlikda ish boshlamoqda. Farg‘onada ehtiyojmand oila chorvachilik orqali o‘zini o‘zi ta’minlash sari qadam qo‘ygan. Andijonda kichik oilaviy ishlab chiqarish kengayib, boshqalarni ham mehnatga jalb etmoqda. Buxoroda esa mahalliy korxona jahon bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda.

Bu misollarning har biri iqtisodiy islohotlarning muayyan yo‘nalishini ifodalaydi. Ularning zamirida Prezidentimiz yuritayotgan insonparvar siyosat, banklarning moliyaviy va tashkiliy ko‘magi, tadbirkorlarning izlanishi hamda odamlarning mehnati mujassam.

Albatta, hali yechimini kutayotgan masalalar ham yo‘q emas. Boshlangan har bir ishning barqaror davom etishi, yangi korxonalarning bozorda o‘z o‘rnini topishi, aholi daromadining izchil o‘sishi doimiy e’tibor va amaliy ko‘makni talab qiladi. Shu ma’noda, banklarning mahallaga yaqinlashishi shunchaki ish uslubi o‘zgarishi emas. Bu iqtisodiy imkoniyatlarni odamlarga yaqinlashtirish, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va islohotlar samarasini har bir xonadonga yetkazishga qaratilgan muhim qadam.

Bunday hayotiy misollarni mamlakatimizning boshqa hududlaridan ham ko‘plab keltirish mumkin. Safarlar davomida ko‘rganlarimni xayolimdan o‘tkazar ekanman, Farg‘onadagi o‘sha xonadon manzarasi yana ko‘z oldimga keladi. Ikki farzandining ertalab o‘z xonadonida sog‘ilgan sutni ichib, xursand holda maktabga ketganini so‘zlab bergan onaning chehrasidagi mamnuniyatni unutish qiyin.

Kimlar uchun bu oddiy voqeadir, ammo o‘sha ona uchun farzandlarining quvonchi, ro‘zg‘oridagi o‘zgarish va ertangi kunga ishonch so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan baxt edi. Shunday lahzalarda yana bir haqiqatni anglaysiz: mamlakat taraqqiyoti haqidagi katta raqamlar inson hayotidagi ana shunday kichik, ammo qadri baland o‘zgarishlar orqali o‘zining asl mohiyatini namoyon etadi.

Mahalladan jahon bozorigacha bo‘lgan yo‘lning mazmuni ham aynan shunda. Bu yo‘lda kimdir oilasi farovonligi uchun mehnat qiladi, kimdir yangi ish o‘rinlari ochadi, yana kimdir o‘z mahsuloti bilan jahon bozoriga chiqadi.

Zero, iqtisodiy islohotlarning samarasi faqat yangi korxonalar barpo etish, ishlab chiqarish quvvatlari va eksport hajmi ortishi bilan emas, balki mehnati qadr topgan, o‘z imkoniyatlariga ishongan, munosib daromad topib, ertangi kunini o‘zi bunyod etayotgan insonlar hayotidagi o‘zgarishlar bilan ham belgilanadi.

DEMOKRATIK BOSHQARUV, SAMARALI HISOBDORLIK, OCHIQLIK VA QONUNIYLIK

O‘zbek davlatchiligi an’anasida “kengash” so‘zi hokimiyatni jamoa mashvarati bilan yuritish madaniyatini ifoda etadi. Muqaddas kitoblarda ham ishlarni o‘zaro kengashib (maslahatlashib) qilish alohida ta’kidlanadi.
Buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur o‘z tuzuklarida saltanat ishlarida kengash, mashvaratu maslahatga amal qilgani, shu asosda davlatni boshqarganini alohida qayd etgan. “Kengashli to‘y tarqamas”, “Bir qo‘ldan sado chiqmas” kabi purma’no maqollarimiz azaldan milliy merosimizda zamonaviy vakillik demokratiyasining ildizlari mujassam bo‘lganini namoyon etadi.



> **“Kengash soati”ni o‘tkazish to‘g‘risidagi taklif kengashning deputatlari, doimiy komissiyalar, partiya guruhlari tashabbusi asosida kengash rayosatida ko‘rib chiqiladi. “Kengash soati” tashabbuskorlari tomonidan kengash deputatlarining tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyat rahbarlariga berish uchun shakllantirilgan savollari kengash raisi tomonidan o‘z egalariga yuboriladi. Mas’ul rahbarlar bu savollarga kengash sessiyasida javob beradi.**



Sakinaxon SAID G‘OZIYEVA,
Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashi deputati

Mutafakkirlar bejiz demokratiyaning eng yaxshi maktabi va uning muvaffaqiyatining eng yaxshi kafolati mahalliy kengashlar amaliyotidir deb aytmagan.

Shu ma’noda, Prezidentimiz tomonidan 2026-yil 12-noyabr kuni imzolangan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun hamda 16-noyabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati kafolatlarini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon mahalliy darajada xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, jumladan, jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda xalq deputatlari mahalliy kengashlari rolini yanada oshirishga zamin yaratadi.

Prezidentimizning 2025-yil 23-iyundagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan ushbu hujjatlar nafaqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, balki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish institutining konstitutsiyaviy-demokratik mohiyatini chuqurlashtirish, vakillik va ijro hokimiyati o‘rtasidagi muvozanatni mustahkamlash hamda fuqarolarning haqiqiy ishtirokini ta’minlash yo‘lidagi muhim institutsional qadamdir.

Zero, ushbu qonunning eng asosiy maqsadi xalq vakillik organi faoliyatida demokratik prinsiplarni mustahkamlash, deputatlarning aholi muammolariga tezkor munosabat bildirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, kengash ishini samarali tashkil qilish hisoblanadi.

Sessiya kun tartibidagi muhim yangilik

Bugungi kunga qadar mahalliy kengash sessiyasini chaqirish, kengash sessiyasi kun tartibi loyihasini shakllantirish, doimiy komissiyalar ishini muvofiqlashtirib borish kabi masalalar birgina kengash raisi zimmasidagi vakolat bo‘lib, demokratik organ faoliyatini tashkil qilish masalalari bir kishiga bog‘lanib qolgan edi.

Endi ushbu holat bartaraf etilib, kengashlar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida barcha kengashlarda “kengash rayosati” instituti joriy etildi. Ushbu rayosatga kengash raisi, hokim, kengash raisi o‘rinbosari, partiya guruhi rahbarlari, doimiy komissiyalar raislari kirishi belgilandi.

Aksariyat tuman kengashlari 20-25 deputatdan tashkil topganini inobatga olsak, endi mahalliy kengash sessiyasini chaqirish, kengash sessiyasi kun tartibi loyihasini shakllantirish, doimiy komissiyalar ishini muvofiqlashtirib borish bir shaxs tomonidan emas, balki 13 nafargacha shaxsdan iborat jamoa tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Boshqacha aytganda, kengash faoliyatini tashkil qilishda demokratik prinsiplar yanada mustahkamlandi.

Ba’zi viloyat kengashlari aholi soniga qarab, 40 nafardan 60 nafargacha deputatdan iborat. Xuddi tuman va shaharda bo‘lgani kabi endi viloyat kengashi tashkiliy ishlarini 15 nafargacha shaxsdan iborat jamoa hal qiladi.

Bunda eng muhim demokratik jihat shundaki, endi barcha partiya guruhlari kengash sessiyasi kun tartibini shakllantirishga ta’sir o‘tkaza olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Ya’ni kengash rayosatiga kirmoqda. Bu — vakillik demokratiyasining klassik talabi: kun tartibi yakka shaxs emas, balki siyosiy kuchlarning o‘zaro muvozanati asosida shakllanishi lozim. Bu esa nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki siyosiy plyuralizmni ham mustahkamlaydi.

Hokimning rayosatga kiritilishi ijro va vakillik organlari o‘rtasidagi hamkorlikning yangi shaklini yaratadi. Ularning kengash rayosatiga kirishi mahalliy ijro etuvchi va vakillik organlari faoliyatini o‘zaro bahamjihat tashkil qilish, hududda aholining eng zarur ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini kengash vakolatlari orqali tezkor ta’minlash, hokimlik faoliyati uchun zarur hujjatlarni kelishilgan holda hal qilish imkoniyatini beradi. Bu mahalliy darajada hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi to‘laqonli amal qilishi uchun zarur bo‘lgan muloqot maydonini shakllantiradi.

“Kengash soati” instituti

Bugungi kunda qonunchiligimizda mahalliy kengashlarning 250 dan ortiq vakolati qayd etilgan. Ularning aksariyati u yoki bu hujjatni tasdiqlash, hisobot va axborotlarni davriy eshitish bilan bog‘liq vakolatlardir.

Ushbu vakolatlar hudud uchun muhimligini inkor etmagan holda aytish joizki, ko‘p hollarda mahalliy kengashlarning 5600 dan ortiq deputati o‘z okruglarida chiqqanida yoki hududiy ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatganida aholi tomonidan shoshilinch hal qilinishi zarur masalalar bo‘ladi. Deputatlar bu masalalarni kengash muhokamasiga kiritmoqchi bo‘lganida esa ayrim hollarda kun tartibida masalalar ko‘payib ketgani sababli ortga surilar, bu vaqtda esa masalaning dolzarbligi yo‘qolib qolayotgan holatlar ham mavjud edi.

Endi qonunchilikka “kengash soati” instituti kiritilib, yuqoridagi bo‘shliq to‘ldirildi. Unga ko‘ra, xalq deputatlari kengashi tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyat rahbarlarining kengash deputatlari savollariga javoblarini eshitadi.

“Kengash soati”ni o‘tkazish to‘g‘risidagi taklif kengashning deputatlari, doimiy komissiyalar, partiya guruhlari tashabbusi asosida kengash rayosatida ko‘rib chiqiladi. “Kengash soati” tashabbuskorlari tomonidan kengash deputatlarining tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyat rahbarlariga berish uchun shakllantirilgan savollari kengash raisi tomonidan o‘z egalariga yuboriladi. Mas’ul rahbarlar bu savollarga kengash sessiyasida javob beradi.

Xulosa qilib aytganda, “kengash soati” instituti parlamentdagi “hukumat soati”ning mahalliy darajadagi muvaffaqiyatli adaptatsiyasidir. “Kengash soati” aholi muammolarini tezkor ko‘tarish va ijro hokimiyati rahbarlaridan bevosita javob olish mexanizmini yaratdi. Bu vakillik nazoratining “tirik” va tezkor shaklidir.

Siyosiy va ma’muriy vazifalar ajratilmoqda

Xalq deputatlari mahalliy kengashi raisi o‘rinbosari instituti joriy etilib, bu vazifani mudirining maqomi kengash raisi o‘rinbosari maqomiga oshayotgani sababli uni lavozimga qo‘yish va ozod qilish masalasi avvalgi “tayinlash” tartibidan demokratik tartibga — saylash tartibiga o‘tkazilmoqda.

Bunda kengash raisi qanday saylansa, rais o‘rinbosari ham aynan shunday saylanishi ko‘zda tutildi, ya’ni deputatlar orasidan xalq deputatlari kengashiga saylovda ishtirok etgan har bir siyosiy partiya deputatlaridan iborat siyosiy partiyalar vakillari guruhi tashkil etilib, nomzodni aynan ushbu guruh tavsiyasi asosida deputatlarning ko‘pchilik ovozi bilan saylaydi.

Siyosiy va ma’muriy vazifalar ajratilishi ham muhim institutsional yutuqdir. Kengash raisi o‘rinbosari instituti joriy etilishi va bu vazifa kotibiyat mudiriga yuklatilishi kengash raisini



ma’muriy-texnik yukdan ozod qiladi. Avval kengash raisi ham siyosiy, ham kengashning joriy ishi, kotibiyat faoliyatini tashkil qilishga oid ma’muriy-texnik masalalar bilan shug‘ullanishiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, endi bu vazifalar kengash raisi o‘rinbosariga yuklatilib, unga kotibiyat xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish vakolati berilmoqda. Bu kengash raisi o‘z faoliyatini ko‘proq hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari ustidan kengash nazoratini tashkil qilishdek strategik masalalarga qaratishiga, xalq deputatlari kengashi doimiy komissiyalari ishini muvofiqlashtirishiga, kengash va komissiyalar ish rejalari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishiga, fuqarolar murojaatlarini ko‘rib

> **Farmonda shu vaqtgacha qonunchilik hujjatlarida belgilangan, mahalliy kengashlar sessiyalarida eshitiladigan hisobot (axborot)lar ahamiyati, dolzarbligi nuqtai nazaridan takomillashtirilib, 24 turdagi hisobotni 13 turdagisi sessiyalarda, 11 turdagisi esa doimiy komissiyalar darajasidagina eshitilishi belgilab qo‘yildi.**

bajarish kengash kotibiyati mudiriga yuklatilmoqda.

Bugungi kunda 221 ta kengash kotibiyati mudiri lavozimi mavjud, ushbu vazifani kengash raisi tomonidan tayinlangan deputatlar bajarib kelayotgan edi. Endi kotibiyat chiqishga ko‘proq e’tibor qaratishiga imkon yaratadi.

Kengash raisi yo‘qligida uning vazifalarini kengash raisi o‘rinbosari bajarishi belgilandi. Kengash raisi o‘rinbosari instituti joriy etilishi amaliyotda ko‘p hollarda uchrab turgan — kengash raislari u yoki bu sabablar tufayli sessiyaga kela olmaydigan hollarda sessiyani boshqarishni professional asosda faoliyat yurituvchi mas’uliyatli mansabdor shaxsga berilishi imkoniyatini yaratadi.

Qonun bilan kotibiyat mudiri bir vaqtning o‘zida kengash raisi o‘rinbosari bo‘layotgani sababli uning siyosiy jihatdan betarafligini ta’minlash maqsadida siyosiy partiyaga a’zolikni to‘xtatib turishi belgilandi.

Umuman olganda, qonun kengashlar faoliyati samaradorligini oshirish, vakillik nazoratining yangi shakllarini joriy etish, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Farmonga to‘xtaladigan bo‘lsak, hujjatning asosiy maqsadlari mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining xalq deputatlari mahalliy kengashlarida hisobot (axborot)larini eshitish tizimini takomillashtirish, mahalliy kengashlar deputatlari maqomi va faoliyatining asosiy kafolatlarini yanada kengaytirish, mahalliy kengash qarorlarini qabul qilish jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hisoblanadi.

Axborotlarni eshitishda takrorlanish bo‘lmaydi

Farmonda shu vaqtgacha qonunchilik hujjatlarida belgilangan, mahalliy kengashlar sessiyalarida eshitiladigan hisobot (axborot) lar ahamiyati, dolzarbligi nuqtayi nazaridan takomillashtirilib, 24 turdagi hisobotni 13 turdagisi sessiyalarda, 11 turdagisi esa doimiy komissiyalar darajasidagina eshitilishi belgilab qo‘yildi.

Ya’ni endi barcha hisobotlar ham sessiyada eshitilavermaydi. Lekin agar deputatlar zarur deb topsa, doimiy komissiya darajasida eshitiladigan masalalar ham sessiyaga olib chiqilishi mumkin.

Qonunchilikda mahalliy kengashlar eshitadigan juda ko‘plab hisobotlar belgilangan bo‘lsa-da, ularning yilning aynan qaysi davrida eshitilishi qayd qilinmagan. Shuning uchun hisobotlar u yoki bu oyda ustma-ust ko‘payib ketayotgan holatlar mavjud edi. Endilikda farmon bilan ushbu bo‘shliq to‘ldirilmoqda.

Qonunchilikda ayni bir mansabdor shaxslar tomonidan beriladigan o‘xshash 20 ta hisobot tizimlashtirilib, 6 taga tushirilmoqda. Masalan, suv xo‘jaligi bo‘yicha 4 ta hujjat ijrosi bo‘yicha hisobot tizimlashtirilib, bitta hisobotga o‘tkazilmoqda. Bu byurokratik yukni kamaytirish va haqiqiy nazoratga e’tiborni kuchaytirishga imkon beradi.

Shuningdek, farmon bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotgani munosabati bilan mahalliy kengashlarning 20 dan ortiq vakolati tugatilmoqda.

Viloyat va tuman darajasida aniqlashtirilayotgan vakolatlar

Mahalliy kengashlarning 15 turdagi vakolati tabaqalashtirilyapti. Ya’ni shu vaqtga qadar umumiy tarzda mahalliy kengashlarniki deb belgilangan vakolatlar hududiy miqyosda aniqlashtirilib, ularning 4 tasi tuman miqyosiga nomarkazlashtirilmoqda.

Vakolatlarning viloyat va tuman darajasida aniqlashtirilishi, ayrim vakolatlar tuman miqyosiga nomarkazlashtirilishi subsidiyarlik prinsipiga mos keladi: qarorlar aholiga eng yaqin darajada qabul qilinishi lozim.

Mahalliy rahbarlarning kengashga shaxsan hisobot berishi, sessiyada shaxsan ishtirok etishi shartligi ham mustahkamlanmoqda.

O‘rganishlar ko‘rsatmoqdaki, ayrim hollarda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat rahbarlari hisobotlariga shaxsan o‘zi kelmasdan, o‘rinbosarlari yoki mutaxassis darajasidagi shaxslarni yuborayotgan holatlar uchramoqda.

Bunday holatlarning oldini olish maqsadida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari o‘z hisoboti (axboroti)ni belgilangan muddatda mahalliy kengashga shaxsan taqdim etishi va o‘z faoliyatiga taalluqli masalalar ko‘rib chiqilayotganda mahalliy kengash sessiyalarida shaxsan ishtirok etishi shartligi belgilab qo‘yilmoqda. Bu mas’uliyat va hurmat prinsiplarining amaliy ifodasidir.

Yana bir muhim yangilik — har chorakda sessiyada saylovchilar muammolari bo‘yicha savollarga hududiy rahbarlarning javob berish vaqti belgilanayotgani bilan bog‘liq.

Deputatlar qonunchilik bo‘yicha har oyda bir marta saylovchilar bilan uchrashib, ularning muammolarini hudud rahbarlariga shu vaqtgacha faqatgina deputat so‘rovi orqaligina yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lar, so‘rovlarning aksariyatiga javob esa “kelgusi rejalarda ko‘rib chiqamiz” qabilida kelayotgan edi.

Endi jahon tajribasidan kelib chiqib, har chorakda bir marta mahalliy kengashlar sessiyalarida kun tartibidagi birinchi masala sifatida, qoida tariqasida, hokim va uning o‘rinbosarlari, tegishli hududdagi boshqa mansabdor shaxslar bilan mahalliy kengash deputatlari tomonidan aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib, saylov okruglaridagi muammolar yuzasidan muhokama o‘tkazilishi belgilanmoqda.

Saylovchilar muammolari har chorakda sessiyaning birinchi masalasi sifatida muhokama etilishi deputatlarning “hujjatlar va ijro”dan “aholi muammolari va tezkor javob”ga o‘tishini ta’minlaydi.

Kafolatlar ko‘lami

Joylarda aholi muammolarining aksariyati mablag‘ talab qiladigan masalalardir. Mana shunday bir sharoitda deputatlar o‘z okrugidagi muammoni hal qilishning moliyaviy-iqtisodiy resurslariga ega emasdi. Natijada ayrim deputatlarda okrugiga chiqishga nisbatan sovuqqonlik hissi shakllangani ham bor gap.

Endi bunga yechim topilmoqda. Mahalliy budjet loyihasini shakllantirishda hududlar toifasidan kelib chiqqan holda, mahalliy budjet xarajatlarining uch foizidan besh foizigacha qismini bevosita mahalliy kengashlar deputatlari tashabbusi asosida yo‘naltirish tartibi joriy etilmoqda. Bu esa deputatning okrugidagi muammolarni hal qilishdagi real imkoniyatini oshiradi.

Deputatlik vazifalarini bajarishga ish beruvchilar tomonidan to‘sqinlik qilish holatlariga javobgarlik kuchaytirilmoqda.

Deputatlar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomada ayrim deputatlar sessiyaga kelishi, okrugga borishi kabi masalalarda o‘zlari ishlayotgan tashkilot rahbarlari tomonidan to‘sqinlikka uchrayotganini qayd etgan. Bunga chek qo‘yish maqsadida farmonda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi doimiy ravishda mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarga o‘z xodimi bo‘lgan va belgilangan tartibda saylangan mahalliy kengash deputatlarining deputatlik vazifalarini bajarishiga, shu jumladan, mahalliy kengash sessiyasi, uning doimiy komissiyalari, partiya guruhlari majlislarida ishtirok etishi, saylovchilar bilan uchrashuvlar, fuqarolar qabullarini o‘tkazishiga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmasligi bo‘yicha ko‘rsatmalar berib borishiga oid topshiriqlar berilmoqda.

Shuningdek, prokuratura organlari xodimning deputatlik vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilingan yoki ushbu vazifalarni bajarayotganda xodimni uning ish joyini (lavozimi) va o‘rtacha oylik ish haqini saqlagan holda ishdan ozod etilmagan yoki bunga to‘sqinlik qilingan holatlarni qat’iy nazoratga olishi va aybdor mansabdor shaxslarni qonunchilik tartibida javobgarlikka tortish choralarini ko‘rishi belgilanmoqda.

Farmon bilan Oliy Majlis Senati va Adliya vazirligining mahalliy kengash deputatining tegishli viloyat, tuman va shahar hududida joylashgan korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarga moneliksiz kirish huquqi uning darajasidan (viloyat, tuman, shahar) kelib chiqib amal qilishini belgilash, mahalliy kengashlarga ularning qarorlarida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarmagan yoki belgilangan tartibda hisobot (axborot) taqdim etmagan mansabdor shaxslarning egallab turgan lavozimiga noloyiqligi yoxud ularni intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha yuqori turuvchi organga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnoma kiritish vakolatini berish bo‘yicha takliflariga rozilik berildi.

Rasmiylikdan haqiqiy vakillikka

Hududlarda hokimlik yuristlari kengash hujjatlari loyihalarini ko‘rmayotgani, yurist shtati faqat viloyatlar va Toshkent shahri kengashlari kotibiyatlaridagina mavjudligi bois, ushbu bo‘shliq to‘ldirilib, tumanlarda ham kengash hujjatlarining huquqiy ekspertizasi ta’minlanmoqda. Farmon bilan 2026-yil 1-dekabrdan boshlab xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar loyihalari yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilishi belgilandi.

Mahalliy kengash qarorlarini qabul qilish jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash maqsadida 2027-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarning mahalliy kengashlar sessiyasida kuzatuvchi sifatida, sessiya ishiga aralashish huquqisiz ishtirok etishi mumkin bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, hujjatlar mahalliy kengashlar ishini tashkil qilishda jamoaviylikni kuchaytirish, aholi muammolariga tezkor munosabat bildirish, sifatli hisobdorlikni ta’minlash, deputatlarning aholi muammolarini hal qilishda moliyaviy imkoniyatlarini yaratish, ochiqlik va qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu mahalliy kengashlarni “rasmiy organ”dan “haqiqiy vakillik va nazorat instituti”ga aylantirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Ular demokratik prinsiplarni mustahkamlaydi, hokimiyatlar bo‘linishini chuqurlashtiradi, deputatlarning aholi oldidagi mas’uliyatini oshiradi va fuqarolarning ishtirokini kengaytiradi.

Bu islohotlar yangi O‘zbekistonning mahalliy darajadagi demokratiyasini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi va xalq hokimiyatchiligining haqiqiy mazmunini to‘ldiradi. Endilikda asosiy vazifa qabul qilingan normalarni amaliyotga to‘laqonli joriy etish, deputatlar va ijro organlarining sifatli hamkorligini ta’minlash hamda aholining ishonchini yanada mustahkamlashdan iborat.

MUSHTARAK YONDASHUV

O‘zbekiston va O‘mon munosabatlari kengayishida ayni muddao bo‘lmoqda

Bugun dunyo munosabatlari jiddiy o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Raqobat, turli mojarolar, global iqtisodiy aloqalardagi beqarorlik davlatlardan tashqi siyosatga yangicha yondashishni talab etmoqda. Bunday sharoitda tashqi siyosatni bir yo‘nalish yoki cheklangan hamkorlar doirasi bilan bog‘lab qo‘yish iqtisodiy va siyosiy tavakkalchilikni oshiradi.



Dilshodbek RUSTAMOV,
Andijon davlat chet tillar instituti rektori

Aksincha, o‘zaro manfaatli aloqalar geografiyasini kengaytirish, turli davlatlar bilan barqaror sheriklik mexanizmlarini shakllantirish mamlakatning strategik imkoniyatlarini mustahkamlaydi. Shu ma’noda, ko‘p vektorli tashqi siyosat shunchaki diplomatik aloqalarni ko‘paytirish emas, balki milliy manfaatlarni xalqaro hamkorlikning keng va muvozanatli tizimi orqali ta’minlashdir.

O‘zbekiston keyingi yillarda shunday yondashuvda izchil. Bu siyosatning muhim jihati shundaki, O‘zbekiston



biror mintaqa bilan yaqinlashishni boshqa hamkorlardan uzoqlashish hisobiga amalga oshirmayapti. Aksincha, turli yo‘nalishlardagi manfaatlarni uyg‘unlashtirish, iqtisodiy sheriklikni siyosiy muloqot bilan mustahkamlash hamda xalqaro munosabatlarda ochiq va pragmatik yondashuvni qaror toptirishga intilmoqda.

Prezidentimizning O‘mon Sultonligiga davlat tashrifini ana shu strategiyaning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkin. Nazarimizda, mazkur tashrifning ahamiyati faqat ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar rivoji bilan chegaralanmaydi. U O‘zbekistonning Markaziy Osiyo va Fors ko‘rfazi mintaqalari o‘rtasida shakllanayotgan yangi siyosiy-iqtisodiy hamkorlik tizimida faol ishtirok etishga intilishini ham namoyon etadi.

Albatta, ikki mamlakatning bugungi yaqinlashuvi tasodif emas. O‘zbekiston va O‘mon xalqlarini tarixiy savdo yo‘llari, Sharq sivilizatsiyasining mushtarak ilmiy-ma’naviy merosi va olis davrlarga borib taqaladigan madaniy aloqalar bog‘lab turadi. Ikki davlat o‘rtasidagi zamonaviy diplomatik munosabatlar 1992-yilda o‘rnatilgan bo‘lsa-da, uzoq vaqt mobaynida mavjud salohiyat bilan hamkorlik o‘rtasida tafovut saqlanib qoldi. Savdo aloqalari cheklanib, logistika imkoniyatlari yetarli darajada ishga solinmadi. Keyingi yillarda siyosiy muloqot faollashib, biznes hamjamiyatlari o‘rtasidagi aloqalar jadallashgani shu imkoniyatlardan foydalanishga yangi sharoit yaratdi.

Masqatda erishilgan kelishuvlarning tarixiy ahamiyati, avvalo, O‘zbekiston va O‘mon munosabatlarining strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilganida namoyon bo‘ladi. Bu oddiy diplomatik maqom o‘zgarishi emas. Strategik sheriklik mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni alohida loyihalar va qisqa muddatli manfaatlar doirasidan chiqarib, uzoq muddatli maqsadlar, o‘zaro ishonch va muvofiqlashtirilgan harakatlar asosida rivojlantirishni anglatadi.

Tashrif yakunida 30 dan ortiq hujjat qabul qilingani, 5 milliard dollarlik loyihalar portfeli shakllantirilgani, qo‘shma investitsiya kompaniyasi ustav kapitalini 500 million dollarga yetkazish masalasi ilgari surilgani ana shu yondashuvning amaliy ifodasidir. Biroq bu yerda muhim bir masalaga e’tibor qaratish zarur: hamkorlikning haqiqiy samaradorligi imzolangan hujjatlar yoki e’lon qilingan investitsiya miqdori bilan emas, balki ularning iqtisodiyotda qanday natija berishi bilan belgilanadi. Loyihalar ishga tushishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilishi, eksport bozorlari kengayishi va aholi bandligiga qo‘shadigan hissasi strategik sheriklikning asosiy mezonlari bo‘lishi lozim.

Tashrifning eng muhim geoiqtisodiy jihatlaridan biri transport va logistika sohasidagi hamkorlikdir. Chunki O‘zbekiston xalqaro suv yo‘llariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega emas. Bu holat tashqi savdo xarajatlari, tranzit yo‘nalishlarini tanlash va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, mamlakatimiz uchun transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish faqat iqtisodiy vazifa emas, balki uzoq muddatli strategik zaruratdir.

Hamkorlikning yana bir muhim xususiyati ikki mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarining o‘zaro to‘ldiruvchanligidadir. O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishi, mineral xomashyo, qishloq xo‘jaligi va mehnat resurslari jihatidan katta salohiyatga ega. O‘monda esa investitsiya kapitali, xalqaro logistika, port infratuzilmasi va tashqi bozorlar bilan aloqalar sohasida muhim imkoniyatlar bor. Ushbu salohiyatni birlashtirish oddiy tovar ayirboshlashdan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sanoat kooperatsiyasiga o‘tish uchun asos bo‘la oladi.

O‘monning iqtisodiyotni diversifikatsiyalashga qaratilgan “O‘mon — 2040” dasturi bilan O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot maqsadlari o‘rtasida ham muhim uyg‘unlik mavjud. Har ikki mamlakat uchun sanoatni modernizatsiyalash, innovatsiyani rivojlantirish, zamonaviy infratuzilma yaratish va inson kapitalini kuchaytirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur tashrifning yana bir strategik jihati uni Markaziy Osiyo va Fors ko‘rfazi davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar rivoji bilan bog‘liq holda baholash zaruratidir. Bugungi kunda Markaziy Osiyo tobora yaxlit iqtisodiy makon va xalqaro transport aloqalarining muhim bo‘g‘ini sifatida shakllanmoqda. Fors ko‘rfazi mamlakatlari esa investitsiya, energetika, transport va yuqori texnologiyalar sohasidagi salohiyati bilan mintaqamiz uchun istiqbolli sheriklarga aylanmoqda.

Davlatlar o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik faqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilangina barqaror bo‘lib qolmaydi. Uning mustahkam ijtimoiy va madaniy asoslari ham shakllanishi zarur. Shu bois, tashrif doirasida ta’lim, ilm-fan, madaniyat, yoshlar almashinuvi, tarixiy qo‘lyozmalarni o‘rganish va raqamlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgani istiqbolli qarordir. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik bu borada katta imkoniyatlarga ega. Bugungi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda xorijiy tillarni mukammal biladigan, turli xalqlarning madaniyati va ishbilarmonlik muhitini tushunadigan, xalqaro kommunikatsiya ko‘nikmalariga ega mutaxassislarga talab ortib bormoqda. O‘zbekiston va O‘mon universitetlari o‘rtasida akademik almashinuv, qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, arab va ingliz tillarini o‘qitish, tarjimashunoslik, sharqshunoslik va raqamli texnologiyalar yo‘nalishlaridagi hamkorlikni rivojlantirish shu jihatdan muhimdir.

Tarixiy qo‘lyozmalarni birgalikda tadqiq etish tashabbusi esa ikki xalqning mushtarak ilmiy-ma’naviy merosini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi. Zero, madaniy va ilmiy aloqalar xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni kuchaytiradigan, siyosiy munosabatlarga uzoq muddatli barqarorlik bag‘ishlaydigan muhim omildir. Iqtisodiy loyihalar mamlakatlarni manfaatlar orqali yaqinlashtirsa, ta’lim va madaniyat ularni insoniy aloqalar orqali bog‘laydi.

Umuman, Prezidentimizning O‘mon Sultonligiga davlat tashrifi O‘zbekiston tashqi siyosatida yangi imkoniyatlar ochayotgan muhim voqea bo‘ldi. Ushbu tashrif O‘zbekistonning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘z o‘rnini milliy manfaatlar, ochiq muloqot va amaliy hamkorlik asosida mustahkamlash siyosati izchil davom etayotganini ko‘rsatdi. Bugungi murakkab geosiyosiy sharoitda ana shunday yondashuv mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligi, tashqi siyosiy mustaqilligi va xalqaro nufuzini mustahkamlashning muhim omilidir.

Nuqtayi nazar



MODDIYLIKDAN USTUN INVESTITSIYA

Ilhom XOLMURODOV,
Kasbiy ta’lim agentligi direktorining ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi



Global dunyo taraqqiyoti va zamonaviy iqtisodiy tahlillar shuni yaqqol ko‘rsatmoqdaki, moddiy resurslar tugaydigan, texnologik kashfiyotlar tez fursatda eskiradigan va an’anaviy valyuta tizimlari barqarorligini yo‘qotadigan zamonda faqat bitta sarmoya mavjud. U hech qachon inqirozga yuz tutmaydi. Aksincha, qo‘shimcha qiymat yaratish, jamiyatni harakatga keltirishda davom etadi. Bu inson, uning bilimi, intellekti va mukammal kasb-hunar mahoratidir.

Buyuk mutafakkir bobomiz Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida “Baxt-saodatga erishish yo‘lida barcha odamlarni birlashtiruvchi va jamiyatni yuksaltiruvchi oliy omil ilm va kasb-hunardir”, deya bir necha asrlar oldin bugungi kun tamoyilini belgilab bergan edi. Ya’ni Sharq Renessansining ushbu oltin qoidasi hozirga kelib yangi O‘zbekiston davlatchilik strategiyasining fundamental poydevoriga aylandi.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish umummilliy g‘oya va strategik vazifa qilib belgilangan ilk kunlardanoq inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining eng markaziy va murosasiz yo‘nalishi sifatida yuzaga chiqa boshladi.

Davlatimiz rahbarining “Ta’lim — sohalar ichida eng dolzarbi, o‘qituvchilik kasblar orasida eng ulug‘idir” degan qat’iy, daxldor va konseptual xulosasi jamiyatning barcha qatlamini sergak torttirdi, uzoq yillar davomida turg‘unlik ko‘lmagida qolib ketgan sohalarni tubdan uyg‘otishga turtki bo‘lib xizmat qildi.

Parchalangan qarashlar

Uzoq yillar jamiyatimiz ongida, ota-onalar va yoshlar qarashlarida texnikumlar haqida o‘ta og‘riqli, salbiy va kamsituvchi stereotip shakllanib qolgan edi. Bu maskanlar asosan oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kira olmagan, muayyan hayotiy tayanchi va intizomi sust bo‘lgan, bir so‘z bilan aytganda, “majburiy bandlik” uchun vaqtincha va o‘z holiga tashlab qo‘yilgan muassasalar sifatida ko‘rilar edi. Jamiyatda “kollej o‘quvchisi” degan tushuncha intellektual salohiyatdan yiroq, faqat jismoniy mehnatga mo‘ljallangan qatlam sifatida qabul qilinishi tizimning eng katta fojiasi edi.

Ushbu davrlarda moddiy-texnik bazaning ma’naviy va jismoniy jihatdan mutlaqo eskirgani, o‘quv dasturlarining real ishlab chiqarish korxonalari va zamonaviy bozor talablaridan kamida 20-30 yil orqada qolib ketgani, laboratoriya xonalarining quruq va amaliyotdan yiroq qog‘ozlardan iboratligi sohani boshi berk ko‘chaga tiqib qo‘ygan edi. Talabalar o‘quv yili davomida ta’lim olish o‘rniga turli ma’muriy ishlarga, qishloq xo‘jaligi mehnatiga tizimli ravishda jalb etilishi oqibatida kasbiy ta’lim o‘z funksiyasini butunlay yo‘qotgan edi. Pedagog kadrlar mehnati qadrsizlangani, oylik maoshlarning nihoyatda pastligi sababli eng iqtidorli mutaxassislar va muhandislar tizimni butunlay tark etgan, qolganlari esa faqat byurokratik qog‘ozbozlik va keraksiz hisobotlar daryosida suzishga majbur qilingan edi.

Prezidentimizning qat’iy va uzoqni ko‘zlagan siyosiy irodasi ushbu qarashlar zanjirini butunlay parchalab tashladi. Kollej va texnikumlar tushunchasi mazmunan boyitilib, xalqaro andozalarga mos keladigan kasbiy ta’lim bosqichiga o‘tkazildi. Davlatimiz rahbari ma’ruzalaridan birida mutlaqo haqli ravishda bunday ta’kidlagan edi: “Sifatli ta’lim tizimi orqaligina yangi texnologiyalarga, yangi xizmatlarga va taraqqiyotga erisha olamiz! Boshqa hech qanday yo‘limiz yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas!”. Ushbu konseptual yondashuv natijasida bugun kasbiy ta’lim tizimi yoshlarni shunchaki vaqtinchalik band qilish vositasi bo‘lishdan chiqdi. U bugun yirik korxona va sanoat klasterlari, tekstil xoldinglari hamda transmilliy xorijiy investitsiya loyihalari uchun eng yuqori texnologik, “aqlli” va raqobatbardosh kadrlar yetkazib beruvchi muhim intellektual bazaga aylandi. Texnikum bitiruvchisi bugun mehnat bozorida oliy ma’lumotli mutaxassis bilan tengma-teng raqobatga kirisha oladigan, hatto undan ko‘ra ko‘p amaliy ko‘nikmaga ega haqiqiy ishlab chiqarish drayveridir. Eng muhimi, bu muvaffaqiyatlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida o‘qituvchi, ustoz va muhandis-pedagoglarning ijtimoiy maqomini ko‘tarish, ularni moddiy jihatdan misli ko‘rilmagan darajada rag‘batlantirishning mukammal mexanizmlari joriy etildi.

Pedagog qadr-qimmati: amalga oshgan umidlar

Menejment fanining oltin qoidalaridan biri shuni uqtiradiki, har qanday tizimning sifati va pirovard natijadorligi quyi bo‘g‘inda, ya’ni bevosita iste’molchi bilan ishlaydigan xodimning ichki kayfiyati va ijtimoiy xotirjamligiga bog‘liq. Ta’lim tizimiga tatbiq etganda, agar darsxonasiga kirayotgan, ustaxonada murakkab dastgoh yonida shogird tayyorlayotgan ustozning ko‘zlarida o‘t, qalbida g‘urur va cho‘ntagida munosib daromadi bo‘lmas ekan, undan dunyoni hayratga soladigan ixtirochi yoki malakali muhandis yetishtirishni talab qilish adolatsizlikdir. O‘qituvchini iqtisodiy g‘am-tashvishlar qurshab olgan tizimda hech qachon sifat haqida gapirib bo‘lmaydi.

Keling, buni Kasbiy ta’lim agentligi tizimida joriy etilgan aniq raqam va mezonlar misolida chuqur tahlil qilsak. Bugun xorijiy va umumta’lim fanlaridan milliy hamda xalqaro tan olingan nufuzli sertifikatlarga ega pedagog kadrlarning bazaviy tarif stavkalariga 50 foiz miqdorda ustama qo‘llanmoqda. Ushbu tizimli o‘zgarish shunchaki oylik maoshni mexanik tarzda



oshirish emas. Bu davlat tomonidan o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, ilm-fanning eng so‘nggi tendensiyalaridan boxabar, turg‘unlikka qarshi innovatsion kurashayotgan o‘qituvchiga berilgan yuksak ehtirom va iqtisodiy rag‘batdir. O‘qituvchi endi faqat sinfdagi majburiy soatini o‘tib ketuvchi “ijrochi” emas, u o‘z ustida ishlab, xalqaro maydonda o‘z bilimini isbotlagan va buning evaziga davlatdan munosib mukofot oladigan “akademik sherik”ka aylandi. Bu tizim boshqa pedagoglarni ham o‘z ustida ishlashga undaydigan sog‘lom rag‘batlantirish zanjirini yaratdi.

Hozirgi dunyo iqtisodiyotining eng muhim talabi til bilish va texnologiyalar transferini to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshirish qobiliyatidir. Bizga endi faqat mahalliylashgan, faqat bitta tildagi darslik bilan cheklangan o‘qituvchi yoki mutaxassis kerak emas. Bizga Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya yoki AQSHda ishlab chiqarilgan eng zamonaviy dastgohlar, robototexnika tizimlari yoki axborot texnologiyalari qo‘llanmalarini chet tilida bevosita o‘qib, shogirdlariga o‘rgata oladigan universal pedagoglar zarur. Aynan shu maqsadda maxsus fanlarni xorijiy tilda o‘qitgan pedagoglarning lavozim maoshiga nisbatan milliy va xalqaro tan olingan B2 sertifikati uchun 50 foiz, C1 sertifikati uchun esa 100 foiz miqdorda har oylik ustama joriy etildi. Pedagog maoshining birgina til sertifikati uchun ikki barobar oshirilishi dunyoning sanoqli davlatlaridagina mavjud bo‘lgan inqilobiy rag‘batlantirish modelidir. Bu — o‘qituvchining ijtimoiy farovonligi, jamiyat frontidagi g‘ururi va o‘z kasbiga cheksiz muhabbatining moddiy hamda huquqiy kafolati. O‘qituvchi o‘z bilimi ortidan boy va farovon yashashi mumkinligini yangi O‘zbekiston o‘z amaliyotida isbotlab berdi.

Uzoq yillar oliy ta’lim tashkilotlari xodimlari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan sun’iy intellektual va ijtimoiy tabaqalanish, ya’ni “darajali kamsitish” holatlari to‘liq bartaraf etildi. Hozir texnikumlarning ilmiy daraja va unvonlarga ega bo‘lgan rahbar, pedagog va boshqa xodimlariga oliy ta’lim tashkilotlarining mos va turdosh lavozimlari uchun belgilangan tartibda ish haqi hamda ustamalar to‘lanishi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu o‘zgarish ilm-fanning bevosita ishlab chiqarish ichiga, texnikum ustaxonalariga kirib borishini ta’minladi. Bugun yetakchi olimlar, ilmiy tadqiqotchilar kafedralardan chiqib, texnikumlarga intilmoqda. Chunki bu yerda ham ilm, ham real amaliyot va eng asosiysi, munosib kapitallashgan daromad tizimi to‘liq kafolatlangan. Bu oliy va kasbiy ta’lim o‘rtasidagi integratsiyani mutlaqo yangi intellektual bosqichga olib chiqdi.

Zamonaviy kasbiy ta’lim muassasasi faqat davlat byudjetidan beriladigan oylik va kommunal to‘lovlarga qarab o‘tiradigan, tashabbussiz va eskirgan ma’muriy-byurokratik tuzilma bo‘lishdan butunlay chiqdi. Bugun texnikum biznes subyektlari, sanoat klasterlari, xorijlik hamkorlar va ilm-fanning o‘zaro manfaatli korporativ hamkorlik poligonidir. Davlatimiz rahbarining ta’biri bilan aytganda, bizga ta’limda son emas, sifat kerak. Sifatga erishish uchun esa boshqaruv uslubini o‘zgartirish, chet elning eng ilg‘or menejment tajribasini olib kirish zarur. Hozirgi ishlar ayni shu talab natijasidir.

Boshqaruv sifatini oshirish maqsadida menejerlik sertifikatiga ega texnikum direktoriga 50 foiz, direktor o‘rinbosariga esa 30 foiz oylik ustama berilmoqda. Bu tizim rahbarlarini zamonaviy marketing, moliyaviy menejment va xalqaro aloqalarni o‘rganishga undovchi kuchli iqtisodiy drayverdir.

Xalqaro ta’lim dasturlari joriy etilgan texnikumlarda boshqaruv va pedagog kadrlarning oylik ish haqiga 300 foizgacha, Ilg‘or kasbiy mahorat texnikumlarida esa 250 foizgacha ustama to‘lanmoqda. Bu o‘zgarish ta’lim muassasalari o‘rtasida haqiqiy, sog‘lom akademik va iqtisodiy raqobatni keltirib chiqardi. 300 foizlik ustama ta’lim tizimi tarixida hali hech qachon kuzatilmagan va pedagogik mehnatni qadrlashning eng yuqori cho‘qqisidir. Ushbu ko‘rsatkichlar esa kasbiy ta’lim tizimidagi mutlaqo yangi boshqaruv inqilobidan dalolat beradi.

Iqtidorlilar ekotizimi

Yangi O‘zbekistonning kasbiy ta’lim tizimi faqat nazariy bilim beradigan an’anaviy maskan emas, balki eng uzoq va chekka qishloqlardagi oddiy, hunarmand, texnik yoki AT sohasiga qiziquvchi yoshlarning ichki salohiyatini kashf etib, jahon miqyosidagi nufuzli musobaqalar darajasiga olib chiquvchi mukammal va uzluksiz ekotizimdir.

Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiy insonning ichki qudrati haqida “Sening ichingda butun bir cheksiz koinot yashirin, o‘zingni hech qachon kichik bir jism deb o‘ylama”, degan edi. Bugun tizim ana shu ichki koinotlarni kashf etish, ulardagi yashirin iste’dod va dehqon yoxud ishchi oilasining farzandidan xalqaro miqyosdagi professional muhandis yaratish maydoniga aylandi. Yoshlarimiz endi o‘z kelajagini faqat diplom olishda emas, balki real oltin qo‘lli hunar egasi bo‘lishda ko‘rmoqda. Ushbu iqtidorlar ekotizimida ustoz va shogird munosabatlari davlat tomonidan qat’iy, huquqiy va iqtisodiy himoyaga olingan.

Belgilangan tartibda tasdiqlanadigan xalqaro va respublika miqyosidagi sport hamda ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari g‘oliblarini tayyorlagan pedagoglarga hech qanday byurokratik to‘siqlarsiz, yillar davomida kutiladigan qog‘ozbozlik va asabbuzarliklarsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri malaka toifalari berilmoqda. Bu amaliy natija bergan o‘qituvchiga davlatning adolatli, tezkor va xolis e’tirofidir. Ustoz shogirdining g‘alabasidan so‘ng o‘z unvonini tasdiqlash uchun oylab idoralarda navbat kutmaydi, davlat uning mukofotini uyiga olib borib beradi.

“Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” kasbiy mahorat milliy tanlovi g‘oliblarini tayyorlagan pedagog kadrlarga bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha pul mukofoti berilmoqda. Bu rag‘bat o‘qituvchining jamiyatdagi mavqeini keskin oshirib, uni o‘z hududida haqiqiy professional qahramonga aylantirmoqda. Bu pul mukofoti o‘qituvchining oylik daromadidan tashqari beriladigan, ijodiy va kasbiy ishtiyoqini alangalatuvchi ulkan sarmoyadir.

Prezidentimiz tomonidan kasbiy ta’lim tizimida yaratilgan ushbu sharoitlar, inqilobiy imtiyozlar va ulkan moddiy dasturlarning tub zamirida faqat iqtisodiy hisob-kitoblar yoki strategik prognozlar yotgani yo‘q. Buning ortida chuqur va cheksiz insonparvarlik, xalqqa fidoyilik, ziyolilarga yuksak ishonch va millat kelajagi uchun daxldorlik tuyg‘usi turibdi. Binobarin, o‘qituvchi va murabbiylar yangi O‘zbekistonni barpo etishda, xalqimizning intellektual salohiyatini yuksaltirishda eng katta kuch va tayanch.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Keyingi yillarda ilm-fan, ta’lim, adabiyot, san’at va madaniyat sohalari vakillarini qo‘llab-quvvatlashga, ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekiston ziyolilari — milliy yuksalish tayanchi!

Jamiyat taraqqiyotining haqiqiy qiyofasi jamiyatdagi ma’naviy muhit, odamlarning fikrlash darajasi, ilmga munosabati va kelajak oldidagi mas’uliyatida aks etadi. Bu jarayonda esa ziyolilarning o‘rni beqiyos. Chunki ziyoli jamiyatdagi o‘zgarishlarning shunchaki kuzatuvchisi emas, balki ularning mazmunini teran anglaydigan, taraqqiyot yo‘nalishini belgilashga hissa qo‘shadigan va odamlarni ezgu maqsadlar sari ruhlantiradigan kuchdir.

UYG‘OQ TAFAKKUR MINBARI





Ilhom SUVANOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori, professor

Joriy yil 10-14-noyabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida O‘zbekiston ziyolilari kengashining hududiy yig‘ilishlari o‘tkazildi. “Yangi O‘zbekiston ziyolilari — milliy yuksalish tayanchi” shiori ostida tashkil etilgan ushbu uchrashuvlar ziyolilar salohiyatini yagona maqsad atrofida birlashtirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

Bu jarayon oddiy anjuman yoki navbatdagi yig‘ilishlar silsilasi emas. Uning zamirida mamlakatning intellektual salohiyatini umummilliy taraqqiyot maqsadlariga safarbar etish, ziyolilarning fikr va tashabbuslariga tizimli e’tibor qaratish hamda ularning jamiyat hayotidagi mas’uliyatini yanada oshirishdek muhim vazifalar mujassam.

Xo‘sh, bugungi davrda ziyolilar kengashiga qanday ehtiyoj bor? Uning tub mohiyati nimadan iborat va u milliy yuksalish jarayonida qanday o‘rin tutishi kerak?

“Ziyo” — nur, yorug‘lik degani. Ziyoli esa bilim va tafakkur nuri bilan atrofdagilarga yo‘l ko‘rsatuvchi inson. U o‘z bilimi, mehnati, vijdoni va fidoyiligi bilan jamiyatni ma’rifat sari yetaklaydi.

XX asr boshida jadid bobolarimiz ana shunday ma’rifat mash’allari bo‘lgan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Tavallo kabi millatparvarlar maktablar ochdi, matbuotni rivojlantirdi, teatr san’atini shakllantirishga hissa qo‘shdi. Ularning sa’y-harakatlari zamirida yagona buyuk maqsad — xalqni uyg‘otish, millatning ilm va taraqqiyotga intilishini kuchaytirish g‘oyasi mujassam edi.

Afsuski, mustabid tuzum davrida milliy ziyolilarning katta qismi qatag‘onga uchradi, ularning ma’rifiy merosini kelgusi avlodlardan uzib qo‘yishga harakat qilindi. Milliy o‘zlik, tarixiy xotira va erkin fikrga intilish ko‘p yillar davomida tazyiq ostida bo‘ldi. Bu esa jamiyatning intellektual va ma’naviy hayotida og‘ir iz qoldirdi.

Keyingi yillarda ilm-fan, ta’lim, adabiyot, san’at va madaniyat sohalari vakillarini qo‘llab-quvvatlashga, ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyolilar bilan o‘tkazgan uchrashuvi bu borada muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Unda ijod ahlining davlat va jamiyat hayotidagi o‘rnini yuksaltirish, milliy adabiyot va san’atni rivojlantirish hamda ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishida ham ma’naviyatni jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga aylantirish, uyg‘oq qalbli ziyolilarning mas’uliyatini oshirish masalalariga alohida urg‘u berildi.

Bularning barchasi bir haqiqatni yaqqol ko‘rsatadi: mamlakatning intellektual qudratini yuksaltirish uchun ziyolilarning shaxsiy salohiyatini e’tirof etishning o‘zigina kifoya emas. Mazkur salohiyatni birlashtiradigan, o‘zaro muloqot va hamkorlikni kuchaytiradigan, ilgari surilgan fikrlarni amaliy natijaga yo‘naltiradigan mexanizm ham zarur. O‘zbekiston ziyolilari kengashining ahamiyati, avvalo, ana shu ehtiyoj bilan belgilanadi.

Birlik, muloqot va mas’uliyat minbari

Har qanday jamoatchilik tuzilmasining qadri uning nomi yoki tashkiliy shakli bilan emas, jamiyat hayotida qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi bilan o‘lchanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston ziyolilari kengashini ma’muriy idora yoki lavozimlar tizimi emas, turli soha vakillarining intellektual salohiyatini umummilliy maqsadlarga yo‘naltiradigan jamoatchilik maydoni sifatida anglash lozim. Kengashning mohiyatini uch asosiy tushuncha orqali ifodalash mumkin: birlik, muloqot va mas’uliyat.

Birinchisi — birlik. Olim, pedagog, shifokor, huquqshunos, jurnalist, yozuvchi, san’atkor va boshqa soha vakillari o‘z kasbiy faoliyati doirasida katta bilim va tajriba to‘playdi. Ammo bu salohiyat umumiy maqsad atrofida jamlanmasa, uning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri cheklangan bo‘lib qolishi mumkin. Kengash ana shu tarqoq imkoniyatlarni birlashtirishga, sohalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchisi — muloqot. Ziyolilar jamiyatdagi muammolarni chuqur anglaydi, sabablarini tahlil qilib, yechimlar taklif etadi. Shu bois, kengash davlat va jamiyat o‘rtasidagi ochiq muloqotning samarali maydoniga aylanishi muhim. Ziyolilar xalqning dardu tashvishlarini, joylardagi muammolarni mas’ullarga yetkazishi, o‘z navbatida, islohotlarning mazmun-mohiyatini aholiga tushuntirishda ham faol ishtirok etishi lozim.

Uchinchisi — mas’uliyat. Kengash ziyolilarga fikr bildirish imkonini berish bilan birga ularning har bir so‘zi va tashabbusi uchun mas’uliyatini ham oshiradi. Chunki jamiyat ziyolidan shunchaki munosabat emas, asosli tahlil, xolis xulosa va amaliy taklif kutadi.

Taklifdan natijagacha

Hududiy yig‘ilishlarning muhim jihati kengash faoliyatini joylardagi ehtiyoj va muammolardan kelib chiqqan holda tashkil etishga bo‘lgan intilishdir. Bu yondashuvda tashabbuslar markazdan tayyor holda tushirilmaydi, balki hududlardagi ziyolilar, mutaxassislar va jamoatchilik vakillarining fikrlari asosida shakllanadi.

Ushbu jarayonni shartli ravishda bir necha bosqichga ajratish mumkin: avvalo, hududlardagi dolzarb masalalar sohalar kesimida muhokama qilinib, bildirilgan taklif va tashabbuslar umumlashtiriladi, so‘ngra ular respublika darajasida ko‘rib chiqiladi hamda asosli deb topilgan takliflar bo‘yicha mas’ullar, amalga oshirish mexanizmlari va kutilayotgan natijalar belgilanadi.

Bu tizimning samarasi, eng avvalo, takliflarning hayotga tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Chunki jamoatchilik muhokamalarida bildirilgan fikrlar qog‘ozda yoki bayonnomada qolib ketmasligi kerak. Har bir asosli tashabbusning keyingi taqdiri, uni amalga oshirish jarayoni va natijasi izchil kuzatib borilsagina, kengashga ishonch mustahkamlanadi.

Kengash kun tartibidagi masalalar bugungi davr talablari bilan bevosita bog‘liq. Jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ilm-fan va ta’limni rivojlantirish, madaniy merosni asrab-avaylash hamda yot g‘oyalarga qarshi ma’rifat bilan kurashish kabi vazifalar shular jumlasidan.

Bu yo‘nalishlarning har biri faqat alohida olingan bir sohaning vazifasi bo‘lib qolmasligi kerak. Masalan, yoshlarda axborotni tahlil qilish, haqiqat va yolg‘onni farqlash, mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishda nafaqat ta’lim muassasalari, balki olimlar, jurnalistlar, ijodkorlar, psixologlar va jamoatchilik vakillari ham birgalikda harakat qilishi zarur.

Kasbiy va shaxsiy namuna

Jamiyatda ziyolilarga nisbatan talab hamisha yuqori bo‘lgan va bugun ham shunday. Chunki ularning fikri, xatti-harakatlari, kasbiy va shaxsiy namunasi yoshlar dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ziyolilik maqomi insondan o‘z ustida doimiy ishlashni, o‘z so‘zi va amali uchun javob berishni talab qiladi.

Bugun axborot oqimi nihoyatda tezlashgan, ijtimoiy tarmoqlar odamlarning fikri va qarashlariga kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan bir sharoitda ziyolilarning vazifasi yanada kengaymoqda. Endi faqat an’anaviy minbarlarda ma’ruza qilish yoki maqola yozishning o‘zi yetarli emas. Ziyoli raqamli makonda ham faol bo‘lishi, yoshlar tushunadigan tilda sifatli mazmun yaratishi, murakkab masalalarni sodda va ishonarli tarzda tushuntirib berishi zarur.

Milliy yuksalish, avvalo, inson tafakkuri va ma’naviyatidan boshlanadi. Mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy barqarorligi va xalqaro maydondagi nufuzi ko‘p jihatdan uning intellektual salohiyatiga bog‘liq. Shu ma’noda, ziyolilar nafaqat jamiyatning ma’naviy yetakchilari, balki kelajak taraqqiyotiga yo‘l ochuvchi muhim kuch hamdir.

O‘zbekiston ziyolilari kengashi tashkil etilishi va uning hududiy yig‘ilishlari o‘tkazilishi ana shu salohiyatni birlashtirish yo‘lidagi muhim jarayondir. Endigi asosiy masala esa bu imkoniyatdan qay darajada samarali foydalana olishimizda.

San’at sehri

Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida “Qizilqum oltin merosi – 2026” III an’anaviy folklor festivali o‘tkazildi. Unda Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizimidagi NKMK jamg‘armasi tasarrufidagi madaniyat muassasalarining 8 ta bolalar va kattalar folklor-etnografik ansambli, jami 243 ishtirokchi o‘z mahoratini namoyish etdi.





QIZILQUM OLTIN MEROSI

— Xodimlarimizning kundalik faoliyati turlicha, kasbiy vazifalari esa bir-biridan ancha farq qiladi, — deydi NKMK xodimlari kasaba uyushmasi kengashi raisi Isroil Rahmatov. — Ular orasida milliy folklor san’atiga mehr qo‘ygan, bo‘sh vaqtini ijodga bag‘ishlayotgan, xalqimizning qadimiy qo‘shiqlari, raqslari, marosimlari va urf-odatlarini o‘rganayotgan insonlar borligi quvonarli. Ularning bir maqsad atrofida birlashishi, madaniyat saroylari va markazlarida muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazishi, sahnada o‘z hududiga xos an’analarni namoyish etishi e’tiborga arzigulik hodisa. Chunki folklor ansamblida ishtirok etish shunchaki sahnaga chiqib qo‘shiq aytish emas, balki o‘z tarixini bilish, ajdodlar merosiga daxldorlikni his etish, xalq xotirasini asrashga hissa qo‘shish demakdir.

Festivalda jamoalar o‘z hududlariga xos qadimiy urf-odatlar, marosim va xalq og‘zaki ijodi namunalarini sahna ko‘rinishlari orqali namoyish etdi. Har bir chiqishda xalqimizning turmush tarzi, oilaviy qadriyatlari, mehnat an’analari va avlodlar xotirasi badiiy ifodasini topdi.

“Farhod” madaniyat saroyining “Sardoba qaldirg‘ochlari” folklor jamoasi “Yangi O‘zbekiston 35 yoshda” kompozitsiyasi bilan ishtirok etgan bo‘lsa, “Sardoba” folklor-etnografik ansambli “Chilla gurzon marosimi”ni sahnaga olib chiqdi. “Uchquduq” madaniyat saroyining “Sahro” jamoasi tomonidan namoyish etilgan “Kigiz bosish marosimlari” ham o‘ziga xosligi bilan e’tiborni tortdi. Zafaroboddagi “Yoshlik” madaniyat va sport markazining “Shodlik” etnografik ansambli bolalar jamoasi “Noz-ne’matlar” hamda kattalar jamoasi “Xalqqa shodlik, tantana” chiqishlari orqali ijodiy salohiyatini namoyon etdi. “Nurobod” madaniyat saroyining “Kamalak” bolalar ansambli “Nuroboddagi chorvachilik” kompozitsiyasini, Zarmitandagi “Konchi” madaniyat markazining “Zarchashma” ansambli esa “Lapar qo‘shiqlar” chiqishini tomoshabinlarga havola qildi.

Festivalning yana bir muhim jihati unda bolalar folklor-etnografik ansamblllari faol ishtirok etganidir. Bugun yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularga xalqimizning boy ma’naviy merosini tanitish dolzarb vazifa. Bunda san’at, ayniqsa, folklorning o‘rni beqiyos. Bola xalq qo‘shig‘ini kuylasa, qadimiy raqslarni o‘rgansa, ajdodlarimiz urf-odatlarini sahnada gavdalantirsa, shu ruhda o‘sadi, madaniy merosimiz ichida yashaydi, tafakkuri o‘zlik ruhida shakllanadi.

Shu ma’noda, NKMK jamg‘armasi madaniyat muassasalarida bolalar folklor ansamblllari faoliyat yuritayotgani alohida ahamiyatga ega. Ular orqali milliy san’at yoshlar hayotiga kirib bormoqda. Bolalar o‘z hududi tarixi, xalq og‘zaki ijodi, marosimlari va qadimiy qo‘shiqlarini o‘rganmoqda. Bu jarayonda sahna madaniyati, jamoa bilan ishlash, o‘ziga ishonch va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari ham rivojlanadi.



Festivalning badiiy saviyasini oshirish, ishtirokchilarning ijro mahoratini xolis baholash maqsadida hakamlar hay’atiga san’at va madaniyat sohasining taniqli namoyandalari jalb etildi. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, Qoraqalpog‘iston xalq artisti Gulshod Otaboyeva boshchiligidagi hay’at tarkibidan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Alisher Madrahimov, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Hurriyatxon Isroilova hamda “Do‘stlik” ordeni sohibi Faxriddin Samadov joy oldi.

Ular jamoalar chiqishlarini baholab borish bilan birga festivalning uchinchi kunida ishtirokchilar uchun mahorat darsi ham o‘tib berdi. Unda folklor jamoalarining ijro mahorati, milliy qadriyat va an’analarni sahnada ifodalash, xalq og‘zaki ijodi namunalarini asrab-avaylash va kelgusi avlodga yetkazish masalalariga e’tibor qaratildi.

Tajribali san’at namoyandalarining mahalliy ijodkorlar bilan bevosita muloqoti, o‘z tajribalarini o‘rtoqlashishi festivalning ta’limiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirdi. Zero, folklor san’atida faqat ovoz yoki ijro mahoratining o‘zi kifoya qilmaydi. Har bir qo‘shiq, har bir raqs, har bir marosimning o‘z tarixi, mazmuni va ichki falsafasi bor. Uni tomoshabinga yetkazish uchun esa ijrochi o‘zi namoyish etayotgan merosni chuqur anglashi lozim.

Uch kun davom etgan ijodiy bellashuv yakunida festivalning eng yaxshi jamoalari e’lon qilindi. Kattalar folklor-etnografiya yo‘nalishida “Farhod” madaniyat saroyining “Sardoba” ansambli faxrli 1-o‘ringa sazovor bo‘ldi. Zarafshon shahridagi “Oltin vodiy” madaniyat saroyining “Dilnavo” ansambli ikkinchi, Zafarobod qo‘rg‘onidagi “Yoshlik” madaniyat va sport markazining “Shodlik” ansambli 3-o‘rinni egalladi.

Bolalar folklor-etnografik ansamblllari o‘rtasida esa “Farhod” madaniyat saroyining “Sardoba qaldirg‘ochlari” ansambli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. “Yoshlik” madaniyat va sport markazining “Shodlik” hamda “Oltin vodiy” madaniyat saroyining “Dilnavo” ansamblllari 2-o‘ringa munosib deb topildi, “Nurobod” madaniyat saroyining “Kamalak” ansambli 3-o‘rinni egalladi. G‘olib jamoalarga tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

— “Qizilqum oltin merosi” festivaliga faqat uch kunlik madaniy tadbir sifatida qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Uning zamirida xalqimizning asrlar osha shakllangan ma’naviy boyligini asrash, bugungi kun bilan bog‘lash va kelajak avlodga yetkazish vazifasi mujassam, — deydi NKMK jamg‘armasi direktori Azamat Bozorov. — Yirik ishlab chiqarish korxonasi faoliyatida madaniyat va san’atga bunday e’tibor qaratilishi, turli kasb egalari orasida folklor ijrochilari kamol topishi, bolalarning milliy san’at ruhida tarbiyalanishi, madaniyat muassasalarida ijodiy muhit shakllanishi — bularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Chunki inson faqat mehnati bilan emas, balki ma’naviy olami, dunyoqarashi, milliy o‘zligi va qadriyatlarga munosabati bilan ham kamol topadi.

Qizilqum bag‘rida yangragan xalq qo‘shiqlari, sahnada jonlangan qadimiy marosimlar va yosh ijrochilarning samimiy chiqishlari yana bir haqiqatni eslatdi: milliy merosimizni mehr bilan asrab-avaylashga intilayotgan insonlar bor ekan, ajdodlardan qolgan ma’naviy xazina avlodlar qalbida mangu yashaydi.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1146.
29189 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05
Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60